

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Qarshi Davlat universiteti

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI METODIKASI KAFEDRASI

Samandarov Nurali Abduxalilovichning
“5141600 - boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
“Badiiy matnning leksik xususiyatlari”
mavzusida yozgan

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: f.f.n N.Ochilov.

Qarshi-2013

Mundarija

Kirish (Ishning umumiy tavsifnomasi).....

1BOB.Badiiy matn va uning o'ziga xosligi

1.1. Badiiy matn haqida tushuncha.....

1.2. Badiiy matnni yuzaga keltiruvchi leksik vositalar.....

2BOB.

Leksik – semantik vositalarning badiiylik xususiyatlari

2.1.Ko'p ma'noli so'zlar.....

2.2.Shakl va ma'nodosh so'zlar.....

2.3 Zid ma'noli so'zlar.....

2.4. Eskirgan, tarixiy va yangi so'zlar.....

Xulosalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

KIRISH. MAVZUNING DOLZARBLIGI

Mustaqillik sharofati tufayli Resublikamizda boshqa ijtimoiy sohalar qatori ta'lim va tarbiya sohasining fan umumjahon ta'lim standartlariga mos holda rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratildi.

Ana shu ko'rsatmalardan kelib chiqqan holda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy matn yaratish va uning texnologiyalarini ishlash muhim ahamiyatga egadir. Badiiy matn yaratish faoliyati o'quvchi so'z boyligi, nutqiy savodxonligi, mustaqil, izchil, o'rinli fikr ifodalash bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniq ko'rsatishga xizmat qiladi. O'quvchining o'z lug'at xazinasini, idrok va xotirasini mustahkamlash vazifasini o'taydi. O'quvchi manbadagi tayyor fikrlarni o'z o'rnida to'g'ri ravon qo'llashni ifodalay olishi mumkin. O'quvchilarda matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarning lug'at zaxirasi, nutqiy – intellektual qobiliyatni aniqlash, ijodiy tafakkur faoliyatini jadallashtirish, o'quvchida ravon nutq, mantiqiy fikrlash, fikr mahsulini yozma ravishda to'g'ri, izchil, o'rinli ifodalash, egallangan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladigan vositalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ayniqsa, 3-sinf ona tili va o'qish darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlash; ijodiy fikr mahsulini yozma, og'zaki shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish kommunikativ savodxonlikni ta'minlashdan iborat. Biz ishni tahlil qilish jarayonida 3-sinf boshlang'ich sinf o'quvchilari og'zaki va yozma nutqida badiiy matn yaratish vositalari va texnologiyalarini shakllantirish usullarini tahlilga tortdik. Bu esa ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning o'rganilganlik darajasi

Badiiy matn yaratishda til vositalari, ayniqsa leksik-vositalarning o'ri haqida ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, B.O'rinboyev, Sh.Rahmatullayev va boshqa ko'plab olimlarning tadqiqot ishlarida leksik vositalarning o'ziga xos o'ri ko'rsatilgan. Bizning ishimizda leksik- semantik vositalarning badiiy matn tarkibidagi o'ri atoqli adibimiz G'afur G'ulom ijodi misolida tahlilga tortildi.

Ishning maqsadi va vazifalari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy matn yaratish usul va texnologiyalari ustida ishlatish uni o'quv jarayoniga tadqiq etish, badiiy matn yaratishda tilning leksik vositalarining muhim ahamiyatli ekanligini tahlil qilish ishimizning bosh maqsadini belgilaydi. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni belgiladik:

birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy matnni hosil qiluvchi til vositalarini o'rgatish;

ikkinchidan, badiiy matnni hosil qilishda fonetik – fonografik, leksik-semantik, grammatik vositalar ustida ishlatish;

uchinchidan, badiiy matn tarkibidagi obrazlar, ko'chimlar, umuman tilning tasviriy vositalarini izohlatish;

to'rtinchidan, o'quvchilarni turli xil mavzularda badiiy matn yaratish usullariga o'rgatish, ularni matnlarning turli xil variantlari bilan solishtirish va shu asosda ko'nikmalarni shakllantirish;

beshinchidan, o'quvchilarga badiiy matn yaratishning turli xil texnologik vositalar bilan tanishtirish va ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish.

Bitiruv-malakaviy ishning obykti va predmeti

Ishning predmetini G'afur G'ulom to'plamlariga kiritilgan she'riy va nasriy matnlar tashkil etadi. Ishning obyektini malakaviy amaliyot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilariga G'afur G'ulom ijodini o'rgatish mobaynida amalga oshirilgan ishlar tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va o'rganish metodlari

Ishimizning metodologik asosini Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'lim sohasi, ona tilini o'rganishning yosh avlod tafakkuruni rivojlantirishdagi nutqi va ma'ruzalarida keltirilgan ko'rsatmalar tashkil etadi. Bitiruv- malakaviy ishini tahlil qilish jarayonida tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanildi.



Ishning ilmiy yangiligi

Umumta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini o'stirish har doim ham ta'lim jarayonidagi muammoli vaziyatlardandir. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn ustida ayniqsa, badiiy matn ustida ishlatish orqali ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, atrof-tevarakdagi narsa va hodisalarning ma'no-mohiyatini anglashga yordam beradi. Ishimizning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish darslarida matn tahlili yuzasidan tushunchalar berish jarayonida foydalanish mumkin.



ISHNING TUZILISHI

Bitiruv malakaviy ishi: kirish, 2 bob, 7 fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1BOB.Badiiy matn va uning o'ziga xosligi

1.1. Badiiy matn haqida tushuncha.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan. Badiiy matn, ma'lumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi. So'zlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik – semantik, ritmik – intonatsion birliklarning qo'llanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi.

So'zning leksik – semantik strukturasi, qo'llanish xususiyatlarini tarkibiy jihatdan tasnif qilish, stilistik xususiyatlarini aniqlash o'zbek tilshunosligining muhim masalalaridan biridir. Buni hal etishda badiiy asar tilini, xususan, she'riyat tilini lingvistik tahlil qilish, asar g'oyasini va u bilan bog'liq bo'lgan emotsional mazmunni ifodalovchi leksik vositalarni aniqlash, tilning dialektlarga bo'lgan munosabatini belgilash singari masalalarni hal qilishni taqozo etiladi. Shoir poetik asarlarining til xususiyatlarini atroflicha o'rganish adabiy tilning boyib borishi, yuksalishi, so'zlarning yangi- yangi ma'nolar kasb etishi bilan bog'liq. O'zbek adabiy tili leksikasi umum o'zbek adabiy tili leksikasining katta bir tarmog'i. Bu leksikani

tekshirmay, uning boyliklarini, soʻzlarning leksik tuzilishi, qoʻllanish xususiyatlarini ochmay turib, umum adabiy tili leksikasining sinxronik holati va diaxronik rivojini ishlab boʻlmaydi.

Tilshunoslar mumtoz adiblar asarlari tili va leksikasini birmuncha yoritdi. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida eʼtiborni qaratish zarur. Sheʼriy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki sheʼrda oʻziga xos jozibador ohang boʻladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qoʻllash natijasida erishiladi. Sheʼriyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni choʻzish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik taʼminlanadi. Tovushlarni uslubiy qoʻllash bilan bogʻliq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Aflotun va Arastu yashagan zamonlardayoq soʻzning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga koʻchirish muammosi mutafakkirlar eʼtiborini oʻziga jalb qilgan edi. Hatto bu notiqlik sanʼati bilan bogʻliq boʻlmagan ravishda, soʻzning, soʻzdagi harflarning talaffuzi bilan bogʻliq ohanglar garmoniyasi buyuk faylasuflarga ilhom manbai boʻlgan edi. Adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri soʻz, umuman, tildir. Adabiy asarning sanʼat darajasiga koʻtarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balogʻatiga bogʻliq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining oʻziga xosligi tahlil etilmogʻi lozim.

Avvalo taʼkidlash kerakki, badiiy asar tilini oʻrganishda keng tarqalgan ikki asosiy yoʻnalishni kuzatish mumkin. Bu ikki yoʻnalishni X. Doniyorov va S. Mirzayevlar «Soʻz sanʼati» deb nomlangan kitoblarida quyidagicha taʼriflaganlar: «Tildagi oʻsish-oʻzgarishlarni oʻrganishni oʻz oldiga vazifa qilib qoʻyadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga boʻlgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt – stilistik aspekt»

Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos boʻlgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik oʻzgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida oʻsha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili oʻrganilishi mumkin. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material boʻlib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yoʻl eng qadimgi va mustahkam lingvistik anʼana sifatida yashab kelmoqda. Oʻzbek tilshunosligida bu yoʻnalishda juda koʻp tadqiqotlar yaratilgan. Ana shunday bir qator ishlar orasida taniqli tilshunos

olimlar A.Rustamov, G'.Abdurahmonov, F.Abdullayev, X.Doniyorov, B.Bafoyev, F.Ishoqov, B.Turdialiyev, T.Jumayev va boshqalarning ko'plab ishlarini ko'rsatish mumkin.

Badiiy asar tilini «stilistik aspekt»da o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. O'z ilmiy ijodining asosiy qismini badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlagan G.O.Vinokur tilshunoslikda ancha eskidan tilning kommunikativ va ekspressiv vazifalari farqlana boshlaganini ta'kidlar ekan, fikrining dalili sifatida olmon tilshunosi fon der Gabelensning 1891 yilda nashr etilgan kitobidagi quyidagi qarashini keltiradi: «Til fikrning bo'laklarga bo'lingan holdagi ifodasi, fikr esa tushunchalarning bog'lanishidir. Lekin inson tili faqat bog'lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki so'zlovchining o'z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o'zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to'yintirgan holda psixologik omil qo'shiladi». Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi. Masalan, V.A.Avrarin tilning kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash) vazifalarini farqlash lozimligini ta'kidlaydi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni «ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, «tilning estetik vazifasi» atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi anchayin keng.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, dunyo tilshunosligi tarixida ayrim olimlar tilning estetik vazifasini keragidan ortiq absolyutlashtirib talqin etgan holatlar ham yo'q emas. Masalan, italyan faylasufi va siyosat arbobi Benedetto Kroche 1902 yilda nashr ettirgan, 1920 yilda rus tilida bosilib chiqqan «Estetika kak nauka o virajenii i kak obshaya lingvistika» nomli kitobida tilshunoslikni estetika bilan aynan tenglashtirgan. B. Kroche g'oyalarini davom ettirgan nemis filologi Karl Fossler esa so'z va gapning estetik bo'yog'i betakrorligiga va ayni shu bo'yoqning tilda yetakchi vazifani bajarishiga ishongan. Albatta, til vazifalari orasida estetik vazifani asosiy, yetakchi vazifa deb qarash, ya'ni tilni tamomila estetik mohiyat sifatida talqin etish to'g'ri emas. Ammo bu olimlarni ana shunday mutlaq fikrga olib

kelgan narsa tildagi estetik vazifa ham o'zini har qadamda, ayniqsa, badiiy matnda namoyon etib turishi bilan bog'liq ekanligi tayin.

Praga lingvistik to'garagi a'zolari tomonidan tilni vazifalariga ko'ra farqlash konsepsiyasi ishlab chiqilgan. «Praga lingvistik to'garagi tezislarida» birinchi marta til vazifalari bilan ularning reallashish shakllari o'rtasidagi aloqa haqidagi qoidalar aniq ta'riflab berilgan. «Tezislar» mualliflari mana bunday deb yozganlar: «Tilni o'rganish har bir xususiy holatda tilning vazifalari va bu vazifalarning reallashish shakllarining xilma-xilligini qat'iy tarzda hisobga olishni taqozo etadi. Aks holda har qanday tilning, xoh sinxron, xoh diaxron bo'lsin, tavsifi muqarrar ravishda yanglish va ma'lum darajada soxta bo'lib qolaveradi». Bu fikr shu joyda yana quyidagicha davom ettirilgan: «Nutqiy faoliyat ijtimoiy rol bajarar ekan, u g'ayrilisoniy borliq bilan aloqasiga ko'ra farqlanadi. Bunda nutqiy faoliyat yo aloqa-aralashuv vazifasiga ega bo'ladi, ya'ni ifodalanmishga yo'naltirilgan bo'ladi, yoki poetik vazifaga ega bo'ladi, ya'ni belgining o'ziga yo'naltirilgan bo'ladi».

Tabiiyki, til o'zining har bir vazifasini o'ziga o'ziga xos shakllarda ifoda etadi, shuning uchun ham, «Tezislar» mualliflari ta'kidlaganlaridek, til tavsifida ana shu reallashish, ifodalanish shakllarini hisobga olish shart. Ammo tilning u yoki bu vazifasi bir-biridan mutlaqo ajratilgan, tamomila mustaqil holda reallashadi deyish unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi. Zotan, kommunikativ (aloqa-aralashuv) vazifa tilning vazifalari orasida eng markaziy, yetakchi vazifa ekanligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q.

Albatta, har qanday badiiy asarda tilning kommunikativ vazifasi ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg'u beriladi: «Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi». Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, tilning bu o'ziga xos estetik vazifasi namoyon bo'ladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biron bir nutq ko'rinishida til o'zining bu vazifasini reallashtira olmaydi deb qarash ham asosli emas. Bu ma'noda tilshunos D. N. Shmelevning mana bu fikrlari diqqatga sazovor: «Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo'lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz».

Olimning alohida ta'kidlashicha, so'zlovchi o'z nutqining tashqi shakliga e'tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o'tishi bilan tilning estetik vazifasi o'zining boshlang'ich ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni so'zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu «nima»ni qanday ifodalashni ham muhim deb hisoblashidan boshlaboq

tilning bu vazifasi ishga tushadi. Jonli so‘zlashuv, kundalik muloqot jarayonidagi ko‘pdan-ko‘p o‘tkir hazillar, latifanamo kulgilar, chuqur ma’noli so‘z o‘yinlari, kimlargadir taqlid qilishlar va hokazo holatlarda ham til belgisi, uning badiiy-ifoda imkoniyatlariga o‘z-o‘zidan diqqat qilinadiki, bunda tilning estetik vazifasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu munosabat bilan D. N. Shmelev quyidagilarni yozadi: «Tilning estetik vazifasi, albatta, so‘zlashuv nutqida ham doimiy ravishda namoyon bo‘ladi. Lekin baribir bu vazifani so‘zlashuv nutqida yetakchi deb bo‘lmaydi, badiiy matnlarda esa til hamisha ayni shu alohida vazifasi bilan ishtirok etadi (bu vazifa, albatta, tilga, uning barcha ko‘rinishlariga hamisha xos bo‘lgan kommunikativ vazifasini cheklamaydi, balki uni o‘ziga xos bir shaklda transformatsiya qiladi)».

Demak, tilning estetik vazifasi butun o‘ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifani ham transformatsiya qilgan, badiiyat manfaatlariga to‘lasicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy nutqda namoyon bo‘ladi. Umumxalq tilidagi barcha birliklar badiiy tilda u yoki bu darajada estetik qiymat kasb etadi.

Badiiy asar tilini o‘rganishdagi ikkinchi, ya’ni «stilistik» yo‘nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo‘lish o‘rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o‘ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o‘rganish qiyin. Buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo‘nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo‘nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko‘rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig‘idagi murakkab muammodir. Hatto asrimiz boshida bir qator tilshunos va adabiyotshunoslar bu muammoni ilmiy asosda o‘rganadigan alohida fan turi shakllanishi lozimligi haqidagi qarashni ilgari surganlar. Masalan, B. A. Larin 20-yillarning boshlarida mana bunday deb yozgan edi: «Ertadir - kechdir, menimcha, juda tez orada til estetikasi alohida fan sifatida tan olinadi».

Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi sohani «lingvistik poetika» - «lingvopoetika» deb nomlash filologiya ilmida ancha turg‘unlashgan hamda «lingvistik poetika»ning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi o‘rnini aniqlashtirishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan.

Bizningcha, lingvopoetik tahlil keng qamrovli jarayon. Unda nafaqat adabiyotshunoslik va tilshunoslikning, balki sotsiologiya, psixologiya, estetika, falsafa kabi fanlar erishgan ilmiy-nazariy yutuqlardan foydalanish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili lingvopoetik nuqtai nazardan tadqiq etilgan ishlar juda ko‘p. Masalan, bir qator ishlarda Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili

badiiy mahorat jihatidan o'rganilgan, ulug' mutafakkirning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalarning mohiyatini ochib berishga harakat kilingan. Akademik Sh.Shoabduraxmonovning bir qator ishlarida o'zbek xalq dostonlari, shuningdek, adiblar badiiy asarlarining tili chuqur tahlil etilgan, leksik-semantik, grammatik birliklarning konkret asardagi badiiy-estetik qimmatini ochib berilgan. Badiiy til masalasini ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida X.Doniyorov, S.Mirzayev, X.Samadov, I.Qo'chqortoyev, X.Abduraxmonov, M.Mirtojiyev, N. Mahmudov va boshqalar alohida diqqatga sazovor bir qancha ishlarni yaratganlar.

O'zbek tilshunosligida keyingi o'n yilliklarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarini mufassal ko'rsatishga bag'ishlangan juda ko'plab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonarlidir. Aytish lozimki, badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga e'tibor qilinganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, tilshunos L.Abdullayeva o'zining monografiyasida o'zbek badiiy adabiyoti tilining leksik stilistikasi muammolari haqida fikr yuritgan. E.Qilichev esa «Badiiy tasvirning leksik vositalari» (1982) deb nomlangan kitobida badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar ustida to'xtalgan. B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (1990) nomli monografiyasida hozirgi o'zbek she'riyati tilining leksik manbalari, poetik leksika, an'anaviy poetizmlar, so'z variantlari va ularning estetik qimmatini kabi masalalar tadqiq etilgan. Ko'rinib turganiday, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetikasi bo'yicha ancha-muncha ish qilingan. Ammo bu yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasi nechog'lik katta bo'lishiga qaramasdan, ular adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadigan jiddiy asarlarning barchasini qamrab olgan deb bo'lmaydi. Buning ustiga, mazkur tadqiqotlarning ilmiy saviyasini ham bir xil deb aytish qiyin.

Ushbu qo'llanmada yozuvchining lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, badiiy matn va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va shu asosda talabalarning umumfilologik saviyasini oshirish kabi vazifalarni bajarish maqsad qilindi. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi nazarda tutildi:

- matn tushunchasi, matn tiplari va tarkibiy butunligi;
- badiiy matn tavsifi, badiiy matnning boshqa matnlardan farqi, badiiy nutq uslubi, badiiy matnning kompozitsion butunligi, butunlikni ta'minlovchi lisoniy vositalar;
- badiiy matnning tahlil qilish metodologiyasi, lingvopoetik tahlil tamoyillari va usullari, tahlil tiplari;

-badiiy matnni til sathlari bo'yicha tahlil, badiiy matnda fonologik va leksik-frazeologik birliklar estetikasi, tasviriy vositalarning badiiy matndagi vazifasi hamda grammatik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari.

Estetik hodisa sifatida badiiy asar tilini o'rganish asnosida muallifning individual uslubiy mahorati hamda uning badiiy asar yozishda til tizimi imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olganligini aniqlashga ham e'tibor qaratish nazarda tutilgan.

«Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Izohli lug'atning 156-betida tekst so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: 1.Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti. 2.Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3.Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi. Bu ta'rifda matnning asosiy xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan. Faqat axborot-kommunikatsiya vositalari- ning taraqqiy etishi natijasida matn (tekst) so'zi anglatadigan ma'no yanada ortganligini ko'rishimiz mumkin. Kompyuterda terilgan matn formati Word, RTF matn, oddiy matn, formatlangan matn, gipermatn kabilar ham iste'molda faollashdi.

Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsion ishida bu haqda shunday yozadi: Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Matn birliklarining o'zaro bog'lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko'rinishi, olmosh turkumiga oid ba'zi so'zlar, gapning so'roq shakliga xos bo'lgan ko'rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o'rin tutadi. Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Nutq og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. «Nutq subyektdan adresatga yo'naltiriluvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi. Matn esa faqat obyektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, balki o'ziga pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir». Tilshunos olim M.Arriv «Diskurs, ifoda (recit) va bular orasidagi aloqani maydonga keltiradigan butunlikka matn deyiladi. deydi. Ilmiy adabiyotlarda kontekst atamasi nutqiy vaziyat mahsuli deb ko'rsatiladi. «Kontekst – bu bir

leksik yoki grammatik birlik asosida ifodalangan ma'no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzilgan minimal nutq birligi. Qoida bo'yicha bu – so'z birikmasi, ba'zan gap, kamdan-kam abzats yoki yaxlit matnga teng keladi». Masalan, tuyoq so'zi hayvonga aloqador a'zo hisoblanadi: Loyi ko'pirib yotgan yo'lda ot taqalari, mol tuyoqlaridan hosil bo'lgan chuqurchalarni limmo-lim to'ldirgan sariq zardoblar jimirlab, yoni-veridan sirqib yotardi (P.Tursun). Mazkur so'z insonga nisbatan qo'llanilganda salbiy ottenka birinchi planga chiqadi: Obro'ying borida tuyog'ingni shiqillatib qol. Kontekst so'zlarning semantik ma'nosi reallashadigan o'ziga xos maydon, nutqiy vaziyat hisoblanadi. Bu o'rinda S.D.Katsnelsonning quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinli: «Borliqning mavjud dalillari lug'atlarda berilganidek alohida so'zlarda emas, balki nutqiy aloqalarda, tugal xabarlarda, matnlarda, ularning minimal bo'lagi bo'lgan gaplarda aks etadi... So'zlar va ular ma'nolarining ong va borliqqa munosabati gap orqali bog'langan, gapdan tashqarida ular faqat potensial birlikdir, xolos. Ularni mexanizmning detallariga qiyoslash mumkin, ularning vazifasi faqatgina butun bir mexanizm bilan aloqada tushuniladi».

Tilshunos E.Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta'rifni keltiradi. I.R.Galperin matnning ma'lumot berish, bo'linuvchanlik, kogeziya (aloqalar sistemasi), kontinium (vaqt va makon izchilligi), qismlar avtosemantiyasi, retrospeksiya va prospeksiya, modallik, yaxlitlik va tugallanganlik kabi sakkiz kategoriyasi mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Umuman matn, deyilganda nutqiy jarayon mahsuli bo'lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kerak. Tilshunos I.Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo'lib, u fikran va sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to'liq bo'ladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda. Biz matnning o'ziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabilarni tushunamiz. Matn ana shunday belgilarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ - sintaktik butunlikdir. Y. M. Lotman «matn ifodalilik (ma'lum bir fikr ifodalangan bo'lishi), chegaralanganlik (mazmun va ifodadagi meyoriylikning bo'lishi) va struktural butunlik belgilariga ega bo'lishi lozim»ligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, badiiy matn uchun mazkur belgilar favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn uslubiy mohiyatiga ko'ra ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, annotatsiya, taqrizlar), badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar), rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo'linadi. Biz ushbu qo'llanmada faqatgina badiiy matn haqida fikr yuritamiz.

1.2.Badiiy matnni yuzaga keltiruvchi leksik vositalar

Til va yozuvchi o'rtasidagi munosabatni shaxmat va shaxmatchi o'rtasidagi munosabatga qiyoslash mumkin. Shahmatda har bir donaning mavqei, darajasi, shaxmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarni tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shaxmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qiladi, betakror kombinatsiyalar yaratadiki, bu unga raqibini mag'lub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda yozuvchi umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

So'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, so'zning qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari aksar hollarda, avvalo, so'z ma'no qurilishining o'zida imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishi tarkibida ilgaridan qayd etilgan bo'ladi.

Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida e'tibor qilinadi. Bu masalani monografik tarzda tadqiq etgan V.N.Teliya ta'rificha, «konnotatsiya – til birliklari

semantikasiga uzual yoki okkozional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo‘lgan hissiy – baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko‘ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat»dir. Konnotatsiya, ta’rifidan ko‘rinib turganiday, so‘zlovchining borliqni ifodalash vositalariga munosabatiga daxldor bo‘lgan jihatdir. Masalan, *yuz, bet, chehra, ruxsor, aft, bashara, turq* kabi so‘zlar qatoridan tegishli nutq vaziyati va subyektiv nuqtai nazarga muvofiq‘ini tanlash so‘zlovchining o‘ziga berilgan imkoniyat ekanligi ma’lum. V.N.Teliya ta’kidlaganidek, bunday so‘zlar semantikasida «so‘zlovchining ifodalanmishga bo‘lgan munosabati haqidagi informatsiya kodlashtirib qo‘yilgan bo‘ladi va jumla qurilar ekan, xuddi siqilgan prujina qo‘yib yuborilganiday, bu informatsiya darhol ishga tushadi», demak, lug‘at birliklari faqat nominativ faoliyat uchungina emas, balki pragmatik faoliyat uchun tayyor material bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchi ayni shu o‘rinda ana shu mulohazalarga asoslangan holda so‘zning semantik qurilishida nominativ jihatga qo‘shimcha konnotativ jihatning bo‘lishi nutqiy tejamkorlik uchun yordam berishini ham ta’kidlaydi. V.N.Teliya so‘zning leksik ma’nosini, kamida, uch makrouzvning kombinatsiyasi sifatida tasavvur etish mumkinligini aytadi: 1) ma’noning borliqdagi muayyan reallikni ifodalovchi denotativ uzvi; 2) kategorial-grammatik uzvi; 3) nutq subyektining so‘z orqali ifodalangan narsaga munosabatini anglatadigan emotiv-modal uzvi. Ana shu uchinchi uzv ekspressiv bo‘yoq, uslubiy bo‘yoq, emotsional bo‘yoq, subyektiv baho kabi tushunchalarni umumlashtiruvchi konnotativ ma’nolardir. Bunday uzvning mazmun-mohiyati o‘zbek tilshunosligida ham ancha keng ochib berilgan. Masalan, «O‘zbek tili leksikologiyasi» kitobida so‘z narsa-hodisani ifodalashi barobarida ko‘pincha shu narsa-hodisaga so‘zlovchining subyektiv munosabatini ham anglatishi alohida ta’kidlangan: «...Lug‘at sostavidagi so‘zlarni kuzatish ularning ba’zilar biror narsa, hodisalarni atabgina qolmay, ayni paytda so‘zlovchining ifodalanayotgan tushunchaga o‘z bahosini, munosabatini ifodalanishini ham ko‘rsatadi. Bu munosabat doirasiga g‘azab, erkalash, qoyil qolish, nafratlanish, jirkanish, kinoya kabi xilma-xil emotsional munosabat ko‘rinishlari kiradi. Xususan, *azamat, o‘ktam, qoyilmaqom, so‘lqildoq, boplamoq, olchoq, mal’un, razil, satang, sanqi, asfalasofilin, miyanqi, qoyil, do‘ndirma, momoqaymoq* kabi so‘zlar, ma’lum tushuncha anglatishdan tashqari, so‘zlovchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko‘rsatib turadi. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda so‘zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi. Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo‘lgan leksika emotsional - ekspressiv leksika, ekspressiv - stilistik leksika terminlari ostida o‘rganilmoqda».

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.

2BOB.

LEKSIK – SEMANTIK VOSITALARNING BADIYYLIK XUSUSIYATLARI

2.1.KO P MA'NOLI SO'ZLAR

Xalq madaniyati va turmushining oynasi, donishmandligining koni bo'lgan tildan foydalanishda G'afur G'ulom qanchadan - qancha so'z tanlash, saralash «azobi»ni tortmagan deysiz. Bitiruv malakaviy ishimizda so'z ma'nosining taraqqiyoti, har bir so'zning o'ziga xos tomoni, qo'shimcha ma'no va mazmun serqirraligi haqida fikr yuritiladi hamda bir qancha polisemantik so'zning leksik ma'nosi, o'zaro aloqasi, bog'lanish yo'li ochib beriladi.

Polisemiya (ko‘p ma’nodlilik) bir til doirasida so‘zning turli ma’nosi o‘rtasidagi munosabatni belgilaydi. Borliqdagi predmet, hodisaning o‘zaro mustahkam bog‘liqligi va uning tilda o‘z ifodasini topganini ko‘rsatadi.

Borliqdagi narsa va hodisa bir-biridan tamomila ajralib qolgan bo‘lmay, balki muayyan qonuniyat asosida uzviy bog‘langan. Shunday ekan, ko‘p ma’noli so‘zning muayyan ma’nosini boshqa so‘zdan ajratib yakka holda qarash to‘g‘ri emas.

Polisemiyada ma’no aniqligini belgilashda so‘zning bir-biri bilan bog‘lanishini (matnni) hisobga olish lozim.

So‘zdagi ko‘p ma’nodlilik hamda uning nozik o‘ttenkasi badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanadi. Sevimli adib G‘afur G‘ulom poetik ijodida so‘zning ko‘p ma’nodligidan mahorat bilan va juda o‘rinli foydalana olgan. U har bir tarixiy jarayonni haqqoniy aks ettirar ekan, xalq qalbi va ruhini butun borlig‘i bilan ifodalashga va **“badiiy mahsul qaddini tiklovchi tasviriy vositalarning tabiiyligiga”** alohida e’tibor beradi.

«O‘zbekcha-ruscha lug‘at»da qayd etilishicha, ko‘z so‘zi asosan to‘rtta ma’noga ega. Shoir o‘z asarlarida so‘zning bunday ko‘pma’nodlilik xususiyatidan ustalik bilan foydalanganki, pirovardida, o‘quvchi asarni o‘qishi bilanoq nima haqda gap ketayotganligini osongina payqab oladi. Misollar:

1. **"Ko‘rish a'zosi"** ma’nosida:

Olmataning olmasiday

Qon talashgan yuzlaring,

Konibodom bodomiday

Qur-quralay **ko‘zlaring**.

2. **"Nazar, qarash, boqish"** kabi ma’nolarda:

Yigit termuladi qizning **ko‘ziga**,

Kiprik suzilishi mayin tabassum

3. **"Ko‘z nuri"** ma’nosida:

Bog‘ aro gunafsha termoqchi bo‘ldi,

Garchand Norbibining xiradir **ko‘zi**.

(«Gunafsha va universal»)

Har bolaning ziyrak **ko‘zi**

Elektrik fonariday.

(«Birinchi dars»)

4. **"Narsa - predmetning ko‘zchasi, teshikchasi, uyacha"** kabi ma’nolarda:

Anhorchada yana biroz suzmoqchi bo‘ldi,

Go‘zal oqshom, o‘rdak ko‘zi sevinchla porlar.

(«Oʻrdak va Turgʻun»)

Gʻafur Gʻulom oʻz asarida bundan tashqari koʻz soʻzi ishtirokida yasalgan juda koʻp barqaror birikmani qoʻllab kelgan». Bundan shoir turli maqsadda foydalangan. Masalan, u barqaror birikmalarni qator soʻzga sinonim sifatida tanlaydi. Chunonchi, shoir «tez» maʼnosini ifodalash uchun koʻz ochib yumguncha birikmasini keltiradi.

Koʻz ochib yumguncha oʻtgan dam qimmat.

Bir lahza mazmuni bir butun bahor,

Yoki shoir boshqa bir asarida **“tugʻilmoq”** maʼnosini ifodalash uchun **koʻz ochmoq** iborasidan foydalanadi:

Tongning mushfiq qoʻynida chaqaloqning yigʻisi,

Quyosh bilan barobar koʻz ochdi yangi odam.

Umuman, shoir koʻz soʻzining koʻp maʼnoliligidan paydo boʻlgan qator birikmalarni, maqollarni tez-tez ishlatib turgan. Misollar shundan dalolat beradi.

Tez tushishga shoshadi yoʻlovchilar beorom:

Omon-eson etdingiz, **toʻrt koʻz tugal** xotirjam.

Yomon koʻz tegmasin: shunday boʻlganda,

Zarafshon vodiya bir uyum tuproq...

Mardlikning yuzini nurda yoʻgʻirib,

Doʻstlarning koʻziga tik qaragan koʻp.

Maʼlumki, **oʻchoq** soʻzi aslida olov yoqiladigan joy maʼnosini bildiradi. Keyingi paytlarda bu soʻzning maʼnosi kengayib biror narsa tarqaladigan joy, biror narsa markazlashgan joy maʼnosini kasb etgan. Gʻafur Gʻulom oʻchoq soʻzining koʻchma maʼnosidan foydalanib, **maʼrifat oʻchogʻi, maorif oʻchogʻi** kabi erkin birikmalarni koʻplab ishlatgan. Shunisi borki, Gʻafur Gʻulom oʻchoq soʻzini neʼmat soʻziga biriktirib original birikmalar yaratgan. Masalan:

Oʻzbekiston yurtiga borgan chogʻi,

Gur ochilur qardoshlarning quchogʻi,

Dilda qaynar neʼmatlarning oʻchogʻi,

Asfalt yoʻlda “Volga”ning toʻpichogʻi,

Avval bizga qoʻnib oʻting, doʻstlarim!

(“Bizning uyga qoʻnib oʻting, doʻstlarim” sheʼridan) Maʼlumki, tilda koʻp maʼnolilik hodisasi voqelikdagi predmet xususiyati nomini boshqasiga koʻchirish orqali roʻy beradi. Gʻafur

Gʻulom ham oʻz asarida tilning mana shu xususiyatidan kelib chiqib ish koʻrgan. Shoir predmet nomini koʻchirishda quyidagi holatlarga rioya qilgan.

1. Oʻxshashlik asosida. Oʻxshashlik shakliy - rang, ichki xususiyat va sifat tomondan boʻlishi mumkin.

Sen oʻrningga botasan

Bizda yonadi chiroq.

(«Tongotar qoʻshigʻi»)

Tanklarning toʻyoqlari erga botarkan...

(«Ulugʻ bayram»)

2. Vazifa asosida.

Maktabning tepasida

Gʻuv aylangan kabutar.

Goʻyo oq qanotida

«Besh» baholi bir daftar.

(«Kaptar uchirdik»)

Toshkent paxtakorlari, bayramingizni qutlab,

Kabutar qanotida etib borsin shu soʻzim.

3. Bogʻliqlik asosida. Bogʻliqlik payt, vaqt, makon va mantiq nuqtai nazaridan boʻlib keladi:

Qirq ikki gradus... besh yashar Alik

Oyoqda valenka, egnida tulup,

Chanada uchmoqda qahqaha urib...

(“Qish”)

Raketa uchirdik biz oyga tomon.

Oydan ham nariroq quyoshga ketdi.

(“Quyoshdan salom”)

Tongotar shabbodasi qanot bogʻlab uchirgan

Tinch - omonlik koʻkida saodat kaptari bu.

(«May salomi»)

4. Soʻz maʼnosining yaqinlashishi orqasida polisemiya hosil boʻladi:

Namangan deganda har qari yoshning

Labida bol tomar, tillar shirin.

(«Namangan uchun»)

2.2.Shakl va ma'nodosh so'zlar

O'zbek tili boshqa til kabi omonim so'zga boydir. Hatto bir necha asr ilgari yashagan mumtoz yozuvchi va shoirlarimiz ham omonimning xilma - xil ma'nosidan keng foydalanib kelishgan. Shu sababli qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Aristotel «Nomlar ichida omonimlar sofist (qadimda faylasuflar shunday deb atalgan) uchun foydali, chunki uning yordami bilan sofist hiyla - nayrang ishlatadi. Sinonim esa shoir uchun foydali» deb yozadi. O'zbek xalqi askiya va o'lan-qo'shiqda tilning ana shu boyligidan ustalik bilan foydalangan. O'tmishda xalq og'zaki ijodida omonimdan foydalanib tuyuq shaklidagi qo'shiqlar yaratilgan, yozma adabiyotda esa, shoir va yozuvchi undan keng foydalangan. O'zbek tili leksikologiyasi

sinonimik imkoniyatlarga boy. Fikrni aniq va maqsadga muvofiq qilib ifodalashda sinonimlarning ahamiyati katta. Sinonim soʻz til lugʻat tarkibining boy va rang-barangligini koʻrsatuvchi omildan biridir. Sinonim fikrni aniq va maqsadga muvofiq qilib ifodalashda yordam beradi. Shu sababli, soʻz sanʼatkori undan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladi.

Sevimli shoir Gʻafur Gʻulom oʻzbek tilining soʻz boyligidagi rang - barang sinonimni yangi estetik tushunchani ochishga xizmat qildirdi. U «bir - biridan yo maʼno ottenkasi bilan, yo uslubiy buyoq bilan, yoki har ikki xususiyat bilan farqlanadigan» sinonimdan ustalik bilan foydalandi, Fikrni aniq va yaqqol ifodalash, «**mazmunni quyuuq misrada bayon etish**» uchun uni oʻz asarida saylab ishlatdi. Shoir sheʼrida birdan ortiq soʻzning oʻzaro semantik aloqaga kirishishidan hosil boʻlgan sinonim koʻplab uchraydi.

Gʻafur Gʻulom sinonim soʻzning oʻzaro mutlaq teng emasligiga, uning har biri oʻziga xos xususiyatga ega ekanligiga va maʼnosidagi nozik farqiga doimo katta eʼtibor qildi. Sinonim soʻzdan oʻzi yaratgan obrazning qiyofasini kitobxon koʻz oldida gavdalanitirish va uning ichki kechirmasini har tomonlama mukammal ifodalash uchun foydalandi. Oʻzbek tili boshqa til kabi omonim soʻzga boydir. Hatto bir necha asr ilgari yashagan mumtoz yozuvchi va shoirlarimiz ham omonimning xilma - xil maʼnosidan keng foydalanib kelishgan. Shu sababli qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Aristotel “**Nomlar ichida omonimlar sofist uchun foydali, chunki uning yordami bilan sofist hiyla - nayrang ishlatadi. Sinonim eca shoir uchun foydali**” deb yozadi.

Oʻzbek xalqi askiya va oʻlan-qoʻshiqda tilning ana shu boyligidan ustalik bilan foydalangan. Oʻtmishda xalq ogʻzaki ijodida omonimdan foydalanib tuyuq shaklidagi qoʻshiqlar yaratilgan, yozma adabiyotda esa, shoir va yozuvchi undan keng foydalangan.

Gʻafur Gʻulom ham oʻz lirikasida ona tilining leksik boyligidan ijodiy foydalandi. U aytmoqchi boʻlgan fikrini kuchaytirish maqsadida leksik-grammatik omonimdan, omoshakl, omofon va omografdan oʻrinli foydalandi.

Omonim soʻz oʻzining maʼno xususiyatiga koʻra turlichadir. Ular ikkitadan toʻrt-beshtagacha etadi va har biri alohida maʼno bildiruvchi mustaqil soʻz sanaladi. Adib sheʼrida **ot, yuz, oy, soch, qirq, yosh** kabi sodda oʻzak - negiz shaklida tuzilgan omonim koʻp ishlatiladi. Masalan, ot soʻzi shoir asarida oʻzaro yaqin aloqasi boʻlmagan ikki xil maʼnoda qoʻllangan:

1. Ish hayvoni maʼnosida:

Atommi? - Yaxshi gap, balki kolxozning
Tegirmon charxiga ot boʻlib qolur.

2. Ism, nom maʼnosida:

Soʻnggi jang talabmi oliy janoblar,
Tarixda zoti yoʻq ot boʻlib qolur.

Shoirning «**O‘zbek elining g‘ururi**» she‘ridan olingan quyidagi parchaga diqqat qilaylik.

Dalalarda chin bayram, bir yo‘l chiqib ko‘rsangiz,

Qizlarni **yuz kilolab** paxta tergan chog‘ida.

Marvarid donalardan shirmonday **bo‘rtadi yuz**.

Go‘yoki baxt ko‘tarib keladi quchog‘ida.

Misoldagi yuz so‘zi - birinchidan, son, raqam, ikkinchidan chehra, bet ma‘nolarida ishlatilgan omonimlardir.

Adib «Suv va nur» she‘rida «**Shirin**» va «**sir**» omonimlarining ma‘nosini shunday beradi.

Shirin - kishi ismi.

Shirin - totli, mazali,

Sir - toponim,(

Sir - maxfiy.

Shirin deb ataydi suvni, nurni u,

Sirning shirin suvi qanchalar shirin.

Go‘zal qiz ko‘ziday nuroniy ko‘zgu.

Yoritur oqibat Sirdaryo sirin.

Hajviy unsurga ega bo‘lgan asarda, askiyada so‘z ustasi tajnis usulidan foydalanadi. G‘afur G‘ulom ham kitobxonda xushchaqchaqlik, kulgi kabi psixik holatni qo‘zg‘atish maqsadida bunga tez-tez murojat qiladi:

Tilimi tilimni ming tilim qilgan

Qirqmalar bog‘ladi yukin qovg‘aga,

Asaljon Shakarov pasporti bilan

Bebelat jo‘naydi do‘stga sovg‘aga.

«Kuz keldi» she‘ridan olingan bu parchada tilim so‘zi ikki xil ma‘noda qo‘llangan:

1. Tilim - bo‘lak, qism, parcha.
2. Tilim - og‘iz bo‘shlig‘idagi organ.

G‘afur G‘ulom o‘z she‘rlarida biror o‘zbekcha so‘zni ishlatib, undan so‘ng shu so‘zning rus tilidagi ekvivalentligini keltirish bilan tajnisning yangicha namunasini yaratadi. Buni uning «**Biz engamiz**» she‘rida yaqqol ko‘rish mumkin:

Bu bog‘larda bitgan har bir qay - **anor**,

Yov bag‘riga otilajak **granat**...

she‘rida muallif qiz bilan yigitning jamiyat uchun bajargan foydali ishlarini so‘z o‘yini bilan jonli tasvirlay olgan:

Suygan yigit olg‘i safda snayper,

Raport berar komandirga **yuzma - yuz**,

Suyishgan qiz terimdagi planin,

Bu tomonda bajarmoqda **yuzma - yuz**.

Parchaning ikkinchi misrasidagi «yuzma-yuz» soʻzi roʻbaroʻ, toʻrtinchi misradagi «yuzma-yuz» esa foiz maʼnosida qoʻllangan. Bulardan tashqari,

och –

- 1) buyruq feʼlining ikkinchi shaxs birlik shakli;
- 2) och qolish;

soch –

- 1) buyruq feʼlining ikkinchi shaxs birlik shakli,
- 2) kishi boshidan oʻsib chiqqan qil;

qirq –

- 1) buyruq feʼlining ikkinchi shaxs birlik shakli,
- 2) son, raqam. (40);

yosh-

- 1) kishi koʻzidan oqadigan suyuqlik,
- 2) katta - kichiklikni bildiradi;

koʻk –

- 1) osmon, 2) oʻsimlik, 3) tik tikmoq feʼlining buyruq shakli;

chang –

- 1) toʻzon,
- 2) urib chalinadigan muzika asbobi;

koʻr –

- 1) koʻrmaydigan kishi, soʻqir,
- 2) kara, qaramoq feʼlining buyruq shakli;

chopmoq -

- 1) yugurmoq,
- 2) kesmoq;

til –

- 1) organ, aʼzo, aloqa vositasi, ogʻzaki va yozma nutq, asir,
- 2) buyruq feʼlining ikkinchi shaxs birlik shakli. Bu kabilar Gʻafur Gʻulom poeziyasida uchragan leksik omonimdir. Bunday misolni matnda ham koʻplab keltirish mumkin. Gʻafur Gʻulom lirikasida omonimning qaysi soʻz turkumiga oidligi ularning maʼnosiga, yangi soʻz yasash usuliga, grammatik xususiyatiga qarab belgilanadi.

Masalan: olma soʻzi, bir tomondan, meva maʼnosida, ikkinchi tomondan, buyruq;feʼli- ning ikkinchi shaxs birlik shaklida qoʻllangan.

Bizda olmalarning besh yuz turi bor;

Rozmarin, bilfler, jonoqi, qandil...

Olma taqdim etmoq muhabbat ramzi,

Olmada aks etar qonga toʻla dil...

Bu oʻrinda olma predmet maʼnosida qoʻllangan.

Akademik shoir Gʻafur Gʻulom soʻzga boy shoirdir. U oʻz sheʼrida omonimning qismlari sanalmish omofon, omoshakl va omograflardan ham ustalik bilan foydalanganki, bu shoir lirikasining mazmunli chiqishini taʼminlaydi, kitobxonni har bir soʻz ustida chuqur oʻylashga, keng mushohada qilishga majbur etadi. Masalan:

Bizning bir ellik

Asl tuproqni

Hech qachon **yot** kuch

Egallayolmas!

Yoki:

Kuni kecha birinchi sinfda edi,

Barmoqlar sanardi; «olti, **yetti**» deb,

Bugun ettinchida.. orzu qistaydi:

Ertani oʻylashning payti **yetdi** deb.

Bu parchalarda shoir omofondan foydalangan. Birinchi toʻrtlikda **yot**, ikkinchi toʻrtlikda **etdi** omofondir. Omofonlar yozuvda talaffuzi bir -biriga yaqin boʻlgan harflarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Yot – 1)begona 2)buyruq feʼli.

Yod – 1) xotira.

Yeti –

1)son,

2)feʼl kabi. Bular faqat orfografik jihatdangina bir - biridan ajratiladi, talaffuzda esa ularni ajratish mumkin emas.

Shoir sheʼrini kuzatar ekanmiz, unda oʻrinli ishlatilgan omoshakllarga ham duch kelamiz.

Masalan, oqar, yoz kabilar shunday soʻzlardir:

Arpa oʻrimida kulgan yuzlardek,

Kulimsirab boshlandi bu chamanda **yoz**.

Shoirlik da'vosi bordir qalbingda,

Buni ham nazm etib daftaringga **yoz**.

Parchada keltirilgan yoz - ot, bosh kelishik shaklida, yoz – buyruq fe'li. Bu so'z o'zining grammatik shakliga ko'ra bir xil talaffuz etilsa ham ma'nolari bir-biridan farqlanadi. Quyida omograflarga G'afur G'ulom she'rlaridan namunalar keltiramiz:

... Million **tom** kitoblar-la ma'rifat sayqalidir,

Bunda bir marmar lavha - Beshinchi yil sanasi.

Yana: ..Stonok unga tirak, sur'at, oqim, **tok** bekorga oqmoqda.

Misollarda ishlatilgan tom, tok so'zlari o'zbek tilida mavjud bo'lgan tok (uzum), tom (uy) so'zlariga omografdir. Shuningdek, shoir she'rlarida may, tur kabi omograflar ham uchraydi.

Yana ko'klam keldi yelmay - yugurmay,

Toklar shonasida taqdim etar May.

O'lmas xalq Vatani bo'sag'asida,

G'alaba asridir bu birinchi May.

Buyuk san'atkor ijodiy mehnat tufayli o'z asarlarini yetiltirdi, mukammallashtirdi, ularga sayqal berdi. Pishiq va xalqchil chiqishini ta'minladi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi nozik tomonlarga alohida e'tibor qildi. Chidam va sabot bilan ishladi. «Ilmsiz she'r zamini yo'q devordir, zaminsiz devor esa g'oyatda be'etibordir» (Fuzuliy), degan hikmatli gapga qattiq amal qilgan holda ish tutdi. Shu sababli uning poeziyasida ishlatilgan omonimlar shoir bir xil shaql orqali bir necha ma'nolarni ifodalash uchun imkon berdi. O'zbek tili leksikologiyasi sinonimik imkoniyatlarga boy. Fikrni aniq va maqsadga muvofiq qilib ifodalashda sinonimlarning ahamiyati katta. Sinonim so'z til lug'at tarkibining boy va rang-barangligini ko'rsatuvchi omildan biridir. Sinonim fikrni aniq va maqsadga muvofiq qilib ifodalashda yordam beradi. Shu sababli, so'z san'atkori undan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladi.

Sevimli shoir G'afur G'ulom o'zbek tilining so'z boyligidagi rang - barang sinonimni yangi estetik tushunchani ochishga xizmat qildirdi. U «bir - biridan yo ma'no ottenkasi bilan, yo uslubiy buyoq bilan, yoki har ikki xususiyat bilan farqlanadigan» sinonimdan ustalik bilan foydalandi, Fikrni ... aniq va yaqqol ifodalash, «**mazmunni quyuq misrada bayon etish**» uchun uni o'z asarida saylab ishlatdi. Shoir she'rida birdan ortiq so'zning o'zaro semantik aloqaga kirishishidan hosil bo'lgan sinonim ko'plab uchraydi.

G'afur G'ulom sinonim so'zning o'zaro mutlaq teng emasligiga, uning har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekanligiga va ma'nosidagi nozik farqiga doimo katta e'tibor qildi. Sinonim so'zdan o'zi yaratgan obrazning qiyofasini kitobxon ko'z oldida gavdalanitirish va uning ichki kechirmasini har tomonlama mukammal ifodalash uchun foydalandi.

Ma'lumki, har bir sinonimning biri ikkinchisidan o'ziga xos ma'no xususiyati bilan farqlanadi. «Uning ayrimi muayyan bir ma'noning turli ottenkasidan iborat bo'ladi. Shunday

xususiyatni o'zida saqlagan ideografik sinonim G'. G'ulom she'rida o'rinli ishlatilgan. Shu jihatdan shoir poeziyasidagi ba'zi so'zning turli ottenkani ifodalovchi sinonim sifatida berilishini ko'rib o'tamiz.

Ravshanki, o'zbek tilida **o'qraymoq** so'zi "**yomon niyatda bo'lmoq**" ma'nosida **ko'z olaytirmoq** iborasi bilan sinonimik munosabatga kirishadi. G'afur G'ulom bu xususiyatdan foydalanib o'zining «Yalovbardorlikka» she'rida "ingliz imperializmining grajdan urushi davridagi bosqinchiligini, vahshiyiligini va o'zining unga nisbatan bo'lgan g'azabini, nafratini ifodalash uchun ko'z olaytirmoq iborasini qo'llaydi:

-... Dushman topolmay panoh

G'arbdan mal'un bosiriqqa kafan tanli ingliz,

Taka turkman ro'zg'origa **ko'z olaytirgan** iblis,

Bir hamlaning shiddatidan tumtaraqay qochganda,

Har qadamda tuman zafar quchog'ini ochganda.

«Ikki vasiqa» poemasida o'z vaqtida soliqni to'lay olmagan mehnatkash xalqqa amin va qozining g'azab bilan muomalada bo'lishi va uning yerini o'zi hisobiga o'tkazib olish voqeasini bo'rttirib ifodalash maqsadida yuqoridagi shaklning so'z tartibini o'zgartirib beradi:

To'rt olachiq, besh kapa, yerlarimiz

Barimtoy - chun Amingadir vasiqa.

Qozi g'azab bilan olaytirib ko'z

Muhr bosdi, muhrki muhiri siyqa.

Boshqa bir asarida esa bu ibora bilan sinonimik munosabatda bo'lgan o'qraymoq so'zini qo'llaydiki, natijada shoir fikr rang-barangligiga erisha olgan. Tikilmoq so'zi «**ko'z olmay qaramoq, ko'z o'zmay qarab turmoq**» ma'nosini ifodalaydi. G'afur G'ulom bu so'zni ayni shu ma'noda to'g'ri va o'rinli qo'llaydi:

Bir kaft tuproqni olib sakkiz; o'n yetuk kishi,

Tong otguncha tikilib, tekshirgan chog'lar bo'lur.

Hozirgi o'zbek tilida biror narsa yoki tomonga **ko'z tashlamoq, nazar tashlamoq** ma'nosini qaramoq reallashtiradi. Shoir o'z asarida bu so'zni ana shu ma'nosida qo'llab, to'g'ri yo'l tutgan. Masalan:

Tanklarning tuyoqlari yerga botarkan,

Komandirga suqim kirib qarab qolaman.

Shoir o'zni kelganda esa **qaramoq** so'ziga sinonim bo'la oladigan **boqmoq** so'zidan ham foydalangan.

Ma'lumki, **qaramoqning sinonimi bo'lgan boqmoq** Toshkent shevasiga xos so'z, U adabiy tilda kam qo'llangan; Biroq G'afur G'ulom shu sheva vakili bo'lgani uchun ham bu so'zdan ko'p foydalangan va uning adabiy tildan o'rin olishiga o'z hissasini qo'shgan:

Ariqda limmo - lim tiniq suv mavji
Suqlanib olamning husniga **boqar**.

G'afur G'ulom o'zining «Sen etim emassan» she'rida esa **tikilmoq** so'ziga sinonim bo'la oladigan **termulmoq** fe'lidan ustalik bilan foydalangan:

... O'talik hissining
Bebaho laziz
To'lqinlari ichra
G'arq bo'lib ketib,
Aziz boshing ustida
Termulmoqdaman.

Kulmoq fiziologik jarayon bo'lib, xursandchilik, shodlikni ifodalaydi. O'zbek tilida bu so'zga yana o'nlab so'z sinonim bo'lib kela olishi mumkin. Biroq bu so'zning har biri shodlikni, xursandchilikni ifodalash darajasi bilan bir-biridan farq qilib turadi. Masalan: jilmaymoq iljaymoq, tabassum qilmoq so'zi ohista, mayin kulgi me'yorini ifodalasa, qahqaqa otmoq shu me'orning bir necha bor ortiqligini bildiradi.

G'afur G'ulom asarida mana shunday so'zlarni mohirlik bilan jamladi va o'z o'rnida ishlatdi. Bu bilan u o'z qahramonining real obrazini gavdalantirishga erisha oldi. Quyidagi misol fikrimizning dalili bo'la oladi.

Kulmoq;

Sen - fuga tahir bilan
Miyiq osti **kuldilar**.

Kulimsiramoq:

Kechagi shuncha izzat, bugunning avansidir,
Yuzingizday **kulimsib** etishdi erta bahor.

Tabassum:

La'lin labingdagi

G'uncha **tabassum**

Albat toleingga

Muhr bo'ladi.

Yigit telmuradi qizning ko'ziga,

Kiprik suzilishi, mayin **tabassum**.

Iljaymoq:

Bir zumda u yulduzdan

Bu yulduzga ko'chardim-

Deganida dadasi

Miyig'ida **iljayib**.

Biroq hayotda kulgining yuqoridagidan boshqa shakli ham uchraydi. Bu, asosan, kishining salbiy jihatini aks ettiradi. Tirjaymoq, tishini oqini ko'rsatmoq shu jumladan. Tabiiyki, G'afur G'ulom salbiy xarakterdagi kishi haqida fikr yuritar ekan, asos e'tibori bilan kulmoq so'ziga sinonim bo'lgan bu shakldan ham foydalanib kelgan. Misol:

Ey, **tirjaygan** murdor bet,

Oqargan tish!.

Kishilik dunyosin qovurgan mal'un ket!

Bizga kerakmas urush!

(«**Agar urush bo'la qolsa**» she'ridan)

Aravakash, yech belbog'ing ko'raylik - chi,

Bu nimadi, tish **irjaytib** qilgan ajib...

Demak, so'z leksik ma'no bilan bir qatorda ma'lum hayajon, his - tuyg'u va turli kechinmani ham bera oladi. Shoir she'rida so'zning bunday xarakteri va darajasi turlichadir. Ba'zi so'zda hayajon aniq bilinib, anglashilib tursa, ba'zida deyarli sezilmaydi. Ayrim so'z ko'pincha ma'lum nutq uslubiga xoslangan bo'ladi. Masalan: **quyosh** va **osmon** so'zi uslub jihatdan bir qadar «neytral» (betaraf) bo'lsa, **shams** va **samo** poetik uslub uchun xoslangan so'zdir.

Shams va samo so'zi prozada faqat qahramon, tarixiy shaxs nutqidagina uchrab, muallif tilida qo'llanmaydi, yoki kam qo'llanadi».

G'afur G'ulom she'rida ishlatilgan **shams** va **samo** so'zi **quyosh** va **osmon** so'zining emotsional - uslubiy sinonimi hisoblanadi. Misol:

Osmon qatlamlari sizning zinangiz,

Tongday yora olib shafaq etagin,

Shunchalik yuksaklikka ko'tarildingiz,

Tinchlandi Zuhraning tepgan yuragi.

Siz ko'kning qoqqasin qoqqan soatda,

Quyosh ko'z o'qalab uyg'onar edi,

Sizning qanotlarga botir tong kuzin,

Zarrin kipriklari ilg'anar edi.

Misoldagi osmon va quyosh so'zi yuqorida aytganimizdek, so'zlashuv uslubiga xos betaraf so'zdir. Uning o'rnida **shams**, **samo** so'zining ishlatilishi shoir she'riga poetik kuch bag'ishlaydi va uning ohangdorligini, emotsionalligining oshishini ta'minlaydi.

Masalan:

O'zbek xonasini yoritmoq uchun

Quvvati etmadi **shamsi samoning**.

G'afur G'ulom bu parchada badiiy va ma'naviy o'tkirlilikni kuchaytirish uchun osmon va quyosh so'zidan emas, uning sinonimi bo'lmish samo va shams so'zidan foydalanayotir. Chunki bu misrada shamsi samo iborasining berayotgan hissiy ta'sirini osmon quyoshi bera olmaydi. Shoir bir xil so'z shaklini ilatish bilan chegaralanib qolmay, balki uning turli xil ma'nodoshini topadi va undan o'rinli foydalanadi.

G'afur G'ulom lirikasida ishlatilgan sinonim so'zning shunday xususiyatini **yuz** so'zi va uning sinonimi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. **Yuz**, **bet** so'zi maxsus emotsional bo'yoq, uslubiy tus bilan yaqqol ajralib turmaydi. Bu emotsional-uslubiy tomondan betaraf (neytral) so'zdir. Shuning uchun bu sinonim o'zaro bir-biridan uncha farq qilmaydi. Ba'zi holda yuz so'zi" o'zi bildirgan obyektga nisbatan so'zlovchining ijobiy munosabatini bildirsa, bet so'zi, aksincha, salbiy munosabatni anglatadi.

Masalan:

Yuzimizni yoritar

Biz berajak mo'l hosil.

Hamma **yuz** - oyday yorug', hamma chehralar tanish-

Dillar - dilniig nusxasi barisi alvon chaman.

Keltirilgan misolda yuz so'zi o'rniga bet so'zini qo'yib ko'rish orqali buni yaqqol sezish mumkin. (Betimizni yoritar deb bo'lmaydi, ma'no buziladi).

Katta Xo'tan ariqdan **bet** yuvdim minglab tongda,

Tuz haqi, ko'p eshikka rahmat aytsam dubdurust

Yuz , bet soʻziga nisbatan qoʻllanish jihatidan bir muncha faol sanaladi.

Besh ming yil ilgari, chorak asr oldin,

Tarix betlarida javrab kelguvchi...

Oʻn - oʻn besh kitobdan xuddi shunisi,

Xuddi shu betdagi mana u jumla

Student koʻziga oydek yarqiroq.

Hayajon, his-tuygʻu oʻzining xarakteriga koʻra xilma-xil va rang-barang boʻladi. Bular ichida baholash xarakteridagi hayajonni alohida koʻrsatish mumkin. Koʻpgina soʻz emotsional tomondan oʻz maʼno tarkibida baho unsurini tashish xususiyatiga ega boʻladi! Gʻafur Gʻulom poeziyasida qoʻllangan **chehra, jamol, aft, bashara** kabi sinonim ana shunday soʻzdir. Emotsional-uslubiy xususiyatga ega boʻlgan bu sinonim turli maʼno tusini farqlash va sheʼrga rang - baranglik berish uchun xizmat qilgan. **Chehra, jamol** soʻzi uyaning ijobiy emotsional buyoqli sinonimini tashkil etadi. Chehra, jamol deganda samimiy, ochiq va goʻzal yuz nazarda tutiladi. Bu soʻzda oʻzining asl leksik maʼnosidan tashqari hayajon, poetik ruh, koʻtarinki tuygʻu ham anglashilib turadi. Shu hususiyati tufayli u shoir sheʼrida koʻp va oʻrinli ishlatilgan.

Misol:

Vatanimiz yeriday barcha **chehralar** kulgan,

Oltoydan - Kavkazgacha boʻliq hosil sherlari.

Kuzakda kelinim boʻl... oftob **chehrang** bilan

Shunchalik quvontirki, «Tu» kelgandek Toshkentga.

Jamol soʻzi goʻzal yuz, ortiq chiroyli manosini anglatadi. Bu soʻz shoir poeziyasida chehraga nisbatan kam qoʻllangan boʻlsa-da, uslubning ravon va koʻrkamligini taʼminlash uchun xizmat qilgan:

Shu koʻrking, **jamoling**, kamoling bilan

Quyoshday abadiy topmagil zavol.

Bir **jamolni** yubordim Sizga salom aytmoqqa,

Alpomish jonimdagi Barchinlardan biridir.

Koʻkka oy, quyosh, yulduz koʻrkamlik berganidek,

Mardlik yigit yurakka, **jamol** qizga munosib.

Aft, bashara sinonimida obyektga nisbatan soʻzlovchining salbiy munosabati bildiriladi. Gʻafur Gʻulom bu soʻzdan salbiy hayajon bildirish maqsadida foydalandi. Bashara soʻzidagi salbiy hayajon aft soʻziga qaraganda bir muncha kuchli.

Misol:

Bir nechaning qaygʻiga tushib **afti**,
Qulliq bilan Aminga boshlaydi arz.

Gitlarning pargarsiz tumshuqli **afti...**

Gʻafur Gʻulom nutqning ochiq, fikrning ravon, uslubning rang-barang boʻlishi uchun sinonim soʻzdan eng zarurini topib, oʻz oʻrnida ishlatishga katta ahamiyat berdi.

«... Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga oʻz soʻz tarkibidagi barcha vositani berishdan tashqari undan tanlab olish imkoniyatini ham beradi.»

Gʻafur Gʻulom oʻzbek tili boyligidan nihoyatda keng foydalangan. Shu tur hisobidan oʻz leksikonini boyitgan. Shunday qimmatli boylikka eta boʻlganligi sababli u, bir tushunchani turli soʻz yordami bilan ifodalaydi. Masalan,

"botir" tushunchasi qahramon, jasur, dovyurak, qoʻrqmas, zoʻr, mard, polvon, bahodir soʻzi orqali; "ulugʻ" tushunchasi buyuk, katta, ulkan, gigant soʻzi orqali; "goʻzal" tushunchasi chiroyli, koʻrkam, suluv, lozar soʻzi orqali; "shod" tushunchasi quvnoq, xursand, xurram kabi soʻz orqali berilgan. Teng qiymatli tushunchaning sintezidan tuzilgan yuqoridagi sinonim soʻz boshqasiga nisbatan yetakchi rol oʻynaydi va oʻz maʼnosi atrofiga boshqa soʻzni uyushtiradi. Shubhasiz, bu kabi sinonimning maʼno tusi va qoʻllanish doirasi bir xil emas. Bu matnda aniq sezilib turadi. Bunga bir necha misollar keltiramiz:

Qahramon oʻgʻillar, **botir** farzandlar,
Aziz manglayingiz boʻlsin yarqiroq...

Saflar oldida boʻl, **mard** boʻl, **botir** boʻl,
Doʻstlarga hamohang **joʻra** boʻl, joʻr boʻl.

Yangi kun uygʻondi, ulugʻ xalqimga
Tong otar muborak oftobidek.

Ne - ne jafo kunlari
Katta yorugʻ yoʻl sari...

Yurak shaklidagi qutlug' o'lkada,
Million - million qalbda xurramlik, shodlik.

Insonning tushunchasi harakatsiz emas, balki harakat qiladi, bir- biriga o'tib turadi, biri boshqasiga qo'shiladi. Shusiz u jonli hayotni aks ettira olmaydi. G'afur G'ulom ana shu fikrga qattiq amal qildi. O'z ustida qunt va chidam bilan ishladi. Xalq hayoti bilan, umumxalq tilining tunganmas boyligi bilan tanishdi. **«Yozuvchi tilida umumxalq tilining boyligi qanchalik chuqur va to'liq ochilgay, ekan, uning asarining tili shu qadar xalqchil bo'ladi.»**

G'afur G'ulom she'rida ilk ma'nosi qisman farq qilsa-da, umumiy ma'no bir - biriga teng bo'lgan quyidagi sinonim ishlatilgan:

Olis yo'llar **shunqori**,
Oshnalarga salom ayt...

... «Do'stlarga hamohang **jo'ra** bo'l, **jo'r** bo'l...»

Misolda ishlatilgan oshna, jo'ra, o'rtoq, esh kabi so'zning hammasi ham «yaqin», «birga bo'lish» belgisi orqali bir-biri bilan sinonim bo'ladi.

«Tushuncha hajmi bir-biriga teng va bir umumiy biriktiruvchi belgiga ega bo'lsa ham, uning ilk ma'nosi bir-biridan farq qiladi. Mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan tushuncha o'zaro, yaqinlashib, u o'rtasida keyinchalik umumiy belgi paydo bo'lishi mumkin. U belgi har bir so'zning ilk ma'nosining «ichki shakl»ini xiralashtirib qo'yib, hozirgi real ma'nosiga aylanadi».

G'afur G'ulom sinonim so'zdan ko'pincha o'z fikrini kuchaytirib, bo'rttirib ifodalash, biror fikrni ta'kidlab ko'rsatish maqsadida foydalanadi. Buning uchun esa bir vaqtning o'zida bir necha sinonim so'zni qatorlashtirib ishlatadi.

Masalan:

Och, yupun, etim, esir, jin arava, yag'ir ot;
Mushtipar, uval, mazlum ketar edi karvon.
Qardosh, qarindosh jondosh, qardoshi hukmron el,
Ulug' kelajakning shohrohiga yo'naldi.

Ba'zi holda esa, ifodalayotgan ma'noni kuchaytirish yoki ma'no doirasini kengaytirish maqsadida sinonim so'zni juft holda ishlatiladi:

To'fon, quyunlarda yakkayu yolg'iz,

Manolit, granit haykalday magʻur.

Koʻcha ham kuylarda **chang - toʻproq** kechib,
«**Olapar**», «**Toʻrtkoʻz**»ni doim quvadi.

Baʻzan – baʻzan –

Panjalar, **barmoqlar** izi bor.

Bundan tashqari, kuch - quvvat, izzat-obroʻ, feʻli-atvor, uy-joy, holi-ahvoli, shinni-sharbat, el-yurt, or-nomus, baxt-saodat, omon-eson, sogʻ-salomat, qaddi-qomat kabi juft sinonim ham shoir sheʻrida uchraydi.

Gʻafur Gʻulom sheʻriyatini koʻzdan kechirar ekanmiz, **abadiy** soʻzining **toabad, abadul abad, abad** kabi sinonimiga duch kelamiz. Bu kabi arxaik sinonimdan shoir maqsadga muvofiq foydalangan. «Uslubiy jihatdan asosli boʻlgan taqdirda yozuvchining arxaizmdan foydalanishini ham taqiqlab qoʻyish notoʻgʻridir».

Xarobalar boisi fashistlarning qadami,

Bu ezgu tuproqlarni bosmas **abadul - abad**.

Umrin, ey sen boʻlib shuncha begʻubor,

To abad aylading meni baxtiyor...

Alifbe oʻrgatgan oʻqituvchining

Hurmatin saqlagʻum **abad - umrbod**.

Sinonim soʻz badiiy adabiyotda, xususan poeziyada juda muhim tasvirlash vositasidan biri sanaladi. Gʻafur Gʻulom sinonim soʻz yordami bilan kishining xususiyati, voqea-hodisani aniq, ravshan va jonli qilib ifodalay oldi. Bir soʻzni oʻrinsiz takrorlashga yoʻl qoʻymadi, uslubning ravon va koʻrkam boʻlishini taʼminladi. Shu bilan sheʻrning ixcham chiqishiga keng yoʻl ochdi. Soʻz maʼnosini, maʼnodagi turli ottenkani, emotsional boʻyoqning tabiatini ochishda chukur fikr yuritish imkonini berdi. Buning hammasi Gʻafur Gʻulom sheʻriyati tilining goʻzal va rang -barang boʻlishida muhim rol oʻynadi.

2.3.ZID MA'NOLI SO'ZLAR

Zid ma'noli so'z (antonim)larni o'rganishda uning semantik xususiyatini nazarda tutmoq lozim. Ma'lumki, bunday so'z zid, qarama-qarshi ma'noni ifoda etadi. Shuningdek, uning grammatik tomoniga ham e'tibor bermoq kerak, chunki bu so'z nutqda uslubiy vosita sifatida qo'llanadi.

Badiiy asarda antonimdan o'rinli foydalanish ayniqsa muhimdir.

G'afur G'ulom o'z she'rida antonim birlikni o'rinli ishlatadi. U predmet va hodisani tasvirlash, uning sifatini aniq va obrazli qilib ko'rsatish, eskilik tarafdorini tanqid qilish, tinchlik va demokratik kuchga qarshi turgan, osoyishta mehnatni ko'rolmagan, yangi urush olovini yoqish uchun harakat qilayotgan kuchning sirini fosh etish uchun antonim so'zdan uslubiy vosita sifatida foydalanadi. Zid ma'noli so'z (antonim)larni o'rganishda uning semantik xususiyatini nazarda tutmoq lozim. Ma'lumki, bunday so'z zid, qarama-qarshi ma'noni ifoda etadi. Shuningdek, uning grammatik tomoniga ham e'tibor bermoq kerak, chunki bu so'z nutqda uslubiy vosita sifatida qo'llanadi.

Badiiy asarda, she'riyatda antonimdan o'rinli foydalanish ayniqsa muhimdir.

G'afur G'ulom o'z she'rlarida antonim birliklarni o'rinli ishlatadi. U predmet va hodisani tasvirlash, uning sifatini aniq va obrazli qilib ko'rsatish, tinchlik va qarshi turgan, osoyishta mehnatni ko'rolmagan, yangi urush olovini yoqish uchun harakat qilayotgan kuchning sirini fosh etish uchun antonim so'zdan uslubiy vosita sifatida foydalanadi. Shoir she'ridagi antonim mazmuniga ko'ra turli xil ma'noni anglatadi

1.Katta-kichik, yosh-qari kabi yosh jihatdan katta-kichiklikka mansublikni bildiradi.

Masalan:

Har xalqning o'z tuqqan ona-Vatani,
Har xalqning o'z muhri, Respublikasi,
Bu xalqlar oraliq senu men ham yo'q,
Kattasi og'asi, kichik ukasi.

Belgiga asoslangan antonim aniq ifodaga nisbatan sodir bo'lmaydi. Uning antonimligi biri ikkinchisiga nisbatan olib qaraladi. Yaxshi-yomon, katta-kichik kabi.Badiiy asar «**qaddi**»ni rostlashda har bir so'z teng huquqqa ega, biroq tasvirlanayotgan voqeani atroflicha bayon etish, maqsadni aniq ifodalash, to'laroq ochish uchun ba'zi so'z faol qo'llanadi, «**mas'uliyatni ko'proq o'z zimmasiga**» oladi. Yuqoridagi parchada «kattasi og'asi, kichik ukasi» so'zini shoir xuddi shunday maqsadda ishlatgan. Katta-kichik, og'a (aka)-uka so'zi bir-biri bilan antonimik munosabatdadir.

2. Rang bildiruvchi **oq-qora** soʻzi. Adib sheʼrida bu soʻz ham oʻz maʼnosida, ham koʻchma maʼnoda qoʻllangan.

Masalan:

Qora, qizil, sariq, oq,

Yeb koʻrmasdan oʻylab boq

Ola buzoq, qashqasi ham bor,

Usti qara, bagʻri oppoq qor

Bu misolda qoʻllangan «qora», «oq» soʻzi rang maʼnosida qoʻllangan. Predmetning rangini bildirib kelgan.

Men ham sening jigargoʻshang-bolangman,

Koʻzingdagi soʻnmas **oqu qorangman**.

Bu parchada ishlatilgan oq, qora soʻzi rang maʼnosida emas, balki farzand maʼnosida qoʻllangan koʻchma soʻzdir. Birinchi parchada soʻzni toʻgʻri maʼnoda qoʻllash bilan shoir badiiy haqiqatga erishgan, ikkinchi parchada koʻchma maʼnoda ishlatish bilan taʼsirchanlikni, emotsionallikni oshirgan. Har ikki holda ham quruq bayonchilik, sunʼiylikning sodir boʻlishiga yoʻl qoʻymagan. Shoir bu bilan katta muvaffaqiyatga erishgan.

3. Past-baland, tikka-yotiq, yuqori-quyi antonimi shoir sheʼrida holatni, vaziyatni bildiradi:

Havaslarim qanotlanib koʻkka uchadi,

Baʼzan **yotiq**, baʼzan tekis **tikka** uchadi.

... Baʼzisi juda **past**, baʼzisi **baland**,

Baʼzisi lab yular-misoli tikan.

Misolda qoʻllangan «yotiq», «tikka», «past», «baland» antonimi jumlagi mazmun, tasvirga ixchamlik baxsh etgan.

4. Erta-kech, kun-tun, kecha-kunduz, yozu-qish antonimi payt, vaqt va mavsumni anglatadi:

Shu yaqinda bir anhorcha, qirgʻogʻi koʻrkam,

Oʻrdak shunda choʻmilarkan, **kechayu kunduz**.

Mangulik hukmida muzning oqishi,

Notinchdir qutbning **yozi va qishi**.

5. «Issiq-sovuq» soʻzi esa haroratni bildirgan.

Kasal uncha qoʻrqinchli ham emas,

Buzuq meʼda, issiq-sovuq, kirlik bas.

Shuningdek, muallif sheʼrida harakat (ketmoq-kelmoq, olmoq-bermoq), holat-xususiyat (yaxshi-yomon, rost-yolgʻon), maza-taʼm (achchiq-chuchuk), his-tuygʻu (vafo-jafo, shodlik va qaygʻu) maʼnosini anglatuvchi antonim ham koʻplab uchraydi. Yuqorida koʻrib oʻtganimiz turli oʻzakdan (yaxshi-yomon, katta-kichik) hosil qilingan antonimdir. Bundan tashqari, Gʻafur Gʻulom sheʼrida bir oʻzakdan yasalgan antonim ham uchraydi. Masalan, aqlli-aqlsiz, bevosita-bavosita kabi. Bu kabi soʻzdagi maʼno zidligini soʻz yasovchi affiks hosil qilgan.

Gʻafur Gʻulomning «Koʻkan», «Ikki vasiqa» poemasi va boshqa baʼzi sheʼrida davr voqealari bir-biri bilan qarama-qarshi qoʻyib tasvirlanadi. Bunda shoir tarixiy oʻtmish haqida aniq tasavvur beradigan, oʻsha davr ruhini toʻlaroq ifodalash uchun xizmat qiladigan soʻzni ishlatadi. Masalan:

Uzun, oppoq soqolini tutamlab,
Bir chambarga yigʻar ongi-esini,
Qoʻbiz kabi yuraklarni timdalab,
Boshlar mungli, ogʻir hikoyasini.
yoki

Uzun, oppoq soqolini el tarab,
Yuksaklikdan nishon berar qoʻrgʻonin,
Sozday tekis ohang bilan erkalab,
Boshlar sevinch toʻla yangi dostonin.

Ravshanki, shoir «Ikki vasiqa» poemasidan olingan bu parchada ikki davr voqeasini bir-biri bilan qiyoslaydi, solishtiradi va bunda u soʻzsiz, antitezaga murojaat etadi. Bu erda muallif ajoyib kontrast yaratadi va shu asosda voqea-hodisaning mohiyatini, mazmunini chuqur his qilishga muvaffaq boʻladi. «Soʻzni chertib olib, har yoqlama tanlab» (Oybek) ishlatadi. «Jumla tuzishda uzoq andisha» (A. Qodiriy) qildi. Bunday misolni Gʻ. Gʻulom sheʼriyatida koʻplab keltirish mumkin. Antonim nutqda maʼlum uslubiy vazifani bajaradi. Nutqning hayajonligi, obrazlilik antonim yordami bilan oshiriladi. Buning yorqin namunasini yuqorida keltirilgan misol ham isbotlab turibdi.

2.4. Eskirgan, tarixiy va yangi soʻzlar

Leksika tilshunoslikning boshqa sohalariga nisbatan oʻzgarib turishi bilan xarakterlanadi. Bu oʻzgarishlar yangi soʻzlarning kirib kelishi, maʼno kengayishi yoki torayishi, shuningdek, ularning shaklan va mazmunan eskirishi kabilarda koʻrinadi. Eskirgan soʻzlar butunlay isteʼmoldan chiqib ketmaydi. Ijodkor oʻzining tarixiy mavzuga oid asarlarila oʻtmish davr ruhini aniq ifodalash uchun eskirgan soʻzlardan foydalanadi. Bu esa uning soʻz qoʻllash uslubini belgilashda qoʻl keladi.

Eskirgan soʻzlarni ilmiy jihatdan tahlil etish yozuvchining tarixiy asari tilining oʻziga xosligini koʻrsatadi. Eskirgan soʻzlar etimologiyasi (kelib chiqishi), ularning davr tili nuqtai nazardan chegaralangan leksik qatlamga mansubligi, baʼzi sheva va dialektlarda saqlanib kelayotganligi ular zamonaviy til manbai sifatida yangi maʼnoda ishlatilayotganligini ham aniqlashga yordam beradi. **Istorizm** (tarixiy soʻz) oʻtmishga oid, hozirgi kunda ishlatilmaydigan ,(yoʻq) narsa va hodisani bildiruvchi soʻz. Maʼlum davrda, ayrim predmet va hodisa jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichida yoʻq boʻlishi, turmushda, kundalik hayotda oʻz qimmatini yoʻqotishi, isteʼmoldan chiqishi, oʻtmish hodisasiga aylanishi mumkin. U nofaol lugʻat tarkibida saqlanadi, maʼlum bir tushunchaning atamasi hisoblanadi. Bunday soʻzdan yoʻq boʻlib ketgan narsa, tushuncha haqida gap borganda foydalaniladi. Chunki hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu oʻzining ekvivalenti (sinonimiga) ega emas. Maʼlum boʻladiki, oʻtmish voqeligini atash zaruriyati tufayli, ishlatiladigan eski lugʻat birligi tarixiy soʻz hisoblanadi. Har bir xalqning tili shu xalqning tarixini, ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi vositadir. Istorizm bildiradigan narsa-hodisa tarixiyliigi sababli uning koʻpchiligi maʼnosi hozirgi davr uchun notanish boʻladi.

Gʻafur Gʻulom tasvirlanayotgan davr ruhini berish va kitobxon koʻz oʻngida oʻtmish voqealarini yaqqol gavdalantirish maqsadida bunday soʻzdan foydalandi. Gʻafur Gʻulom yangilikka ixlosmand, hozirjavob shoir. Mamlakatimiz va xalqimiz hayotidagi har bir muhim voqea shoir ijodida oʻz ifodasini topgan. Toʻgʻrirogʻi **“uning asari xalqimiz ishi va kurashining oʻziga xos xronologik dostonidir”**.

Gʻafur Gʻulom oʻzbek adabiy tilining boy lugʻat tarkibidan foydalanib qolmasdan, balki oʻzbek tilining soʻz yasash imkoniyati asosida koʻpgina yangi soʻz ham ijod qildi. Yangi yaratilgan bu soʻzni biz neologizm yaʼni (yangi soʻzlar) deb ataymiz. U oʻzbek tilini rang-barang maʼnoli va ifoda ottenkalari, koʻzga tashlanib turuvchi koʻplab yangi soʻzlar hisobiga boyitdi. Shoir yangi soʻzlar yaratar ekan, uning voqea va hodisani tasvirlashdagi maʼno chuqurligini (mazmunini), ifoda xususiyatini diqqat markazida tutadi. Adib ijod etgan yangi soʻz fikran teranligi, tasvirlanayotgan voqea-hodisaning oʻziga xos xususiyati bilan koʻzga yaqqol tashlanib turadi. Bu shoirning xohishi bilan emas, balki hayotning talabi, unga nisbatan ehtiyoj tugʻilishi va sanʼatkorning til boyligida obyektiv ravishda aks etishi bilan yasaladi. Leksika tilshunoslikning boshqa sohalariga nisbatan oʻzgarib turishi bilan xarakterlanadi. Bu oʻzgarishlar yangi soʻzlarning kirib kelishi, maʼno kengayishi yoki torayishi, shuningdek, ularning shaklan va mazmunan eskirishi kabilarda koʻrinadi. Eskirgan soʻzlar butunlay isteʼmoldan chiqib ketmaydi. Ijodkor oʻzining tarixiy mavzuga oid asarlarila oʻtmish davr ruhini aniq ifodalash uchun eskirgan soʻzlardan foydalanadi. Bu esa uning soʻz qoʻllash uslubini belgilashda qoʻl keladi.

Eskirgan soʻzlarni ilmiy jihatdan tahlil etish yozuvchining tarixiy asari tilining oʻziga xosligini koʻrsatadi. Eskirgan soʻzlar etimologiyasi (kelib chiqishi), ularning davr tili nuqtai nazardan chegaralangan leksik qatlamga mansubligi, baʼzi sheva va dialektlarda saqlanib kelayotganligi ular zamonaviy til manbai sifatida yangi maʼnoda ishlatilayotganligini ham aniqlashga yordam beradi. Eskirgan soʻzlar asosini tashkil etuvchi istorizm va arxaizmlar funksional jihatdan chegaralangan leksik qatlamga mansub boʻlib, faqat arxaizmlargina oʻzining sinonimik qatoriga ega.

Narsa-predmet yoki hodisa zamonaviy boʻlib. uning oʻtmish nomi yoki atamalaridan biri istemoldan chiqadi, eskiradi. Arxaik soʻz va shakllar oʻz muqobillari boʻlishi bilan istorizmdan farqlangan holda eskirgan soʻzlar sifatida badiiylikni oshirishda. oʻziga xos uslub yaratishda real tarixiy voqea-hodisalarni aniq tasvirlash imkonini beradi. Buni soʻz ustasi Gʻafur Gʻulom asarlarida yaqqol koʻrish mumkin. Adib koʻpgina asarlarida eskirgan va yangi kirib kelgan soʻzlarni sinonimik qator sifatida almashlab qoʻllagan.

Gʻafur Gʻulomning soʻz qoʻllash sanʼati haqida akademik Sh.Shoabdurahmonov shunday deydi: "...Gʻafur Gʻulom soʻz sanʼatida oʻziga xos oʻrin tutgan zabardast yozuvchi

edi. U soʻz sanʼatida zargar mehnatini ayamay, soʻzning mazmuniy va hissiy qirrazarini sheʼriyatda olmosdek tovlantira oldi. Shoirning poetik tili sodda emas. u mushohadatalab, oʻylashga majbur qiladigan, har bir misrasi zalvorli.

Gʻafur Gʻulom oʻz asarlarida jamiyat tarixi bilan bogʻliq muhim hodicalarni tasvirlashda eskirgan soʻzlardan mohirona foydalangan. Uning asarlarida jumladan: rido (boʻyinga oʻrab elkaga tashlanadigan oq chodir), vosila (vosita), gʻayurlik (dushmanlik), tumtaroq (tantana), yalov (bayroq). dovul (ikki yoniga teri qoplangan childirma). soqit (jim-jit). shukuh (savlat). dabdada (tantana), hiddat (shiddat), kitli (guruh toʻda), tugro (gerb), dagʻdagʻa (tashvish), epkinlik (hushyorlik), tolotumli (mavjli, toʻlqinli), shakkok (ogʻzi buzuq), epkin (chaqqon). basma-bas (musobaqa) kabi soʻzlarni uchratish mumkin.

Shoir badiiyatida arxaizm va istorizm talablariga muvofiq boʻlgan, ularning leksik, fonetik, grammatik jihatdan eskirgan koʻrinishlarining barchasini uchratish mumkin. Bunda, shuningdek, arxaizm va istorizm hisoblangan soʻzlarning imloviy va talaffuz shakllari eskirgan, oʻzak yoki qoʻshimchalardan birining passivlashgan yoki maʼnolaridan biri eskirgan variantlari ham uchraydi. Masalan, shoir Qozon shahridagi Mullanur Vohidov nomli zavod ishchilariga bagʻishlab yozgan "Sheʼr va sobun" (1936 yil) sheʼridagi

"Dunyoni orituga yetar kuchimiz"

degan misrada tozalash soʻzini-oritu shaklida qoʻllagan. Bunda oritu soʻzi matnda oʻz lugʻaviy mazmun mohiyatini saqlagan. Shoir bu oʻrinda arxaizmning fonetik oʻzgargan shaklidan foydalangan. Oritu soʻzining oʻzagi ori - boʻlib, -t, -u qoʻshimchalari esa XIV-XV asrlar eski oʻzbek tili yozma manbalarida faol qoʻllangan feʼlning ortirma darajasi - t, undoshdan keyin - t//, it//, -ut qoʻshimchalari -u esa (t) ur//, -t (ur) affikslarining birikuvini asosida hosil boʻlgan -(i) tu(r) tarzidagi qisqargan shaklidir.

Lugʻatlarda bu soʻz arigʻ, origʻ, arimoq, aritmoq, arilmaq — pokiza, sof, toza, tiniq, tozalanmoq, arimoq, pokizalanmoq tarzida uchraydi.

Shoir birgina sof turkiy oritu soʻzi orqali turkiy xalqlar, xususan, oʻzbek va tatar tillarining bir-biriga yaqinligini, soʻzning qoʻllanish doirasini, maʼno kengayishi va torayishi holatini namoyish etgan.

Gʻafur Gʻulom **"Sheʼr va sobun"** sheʼrida sheʼrni sobunga qiyoslaydi: sheʼr xalq, jamiyat fikrini tozalaydi, tiniqlashtiradi, maʼnaviy oziqlantiradi; sobun esa jism, inson aʼzosi, kiyim-boshni tozalaydi. atrof-muhitni pokiza etadi, majozan butun dunyoni poklashga, xalqlar oʻrtasidagi tozalikka. sof doʻstlikka, iliqlikka daʼvat etadi.

Shoir asarlari tilining bu jihatlari tilimizning tarixiy taraqqiyotini oʻrganishda yordam berishi shubhasizdir.

Ma'lumki, organizmga o'xshab tildagi so'z ham doimiy taraqqiyotda, o'sishda bo'ladi. Tildagi bu o'sish va o'zgarish tez va uzil-kesil sodir bo'lmaydi. Vaqt o'tishi turmushning o'sishi natijasida so'z orqali ifodalangan narsa va tushuncha eskirib kam ishlatiladigan bo'lib qoladi, faol so'zdan nofaol so'zga aylanadi.

. Eskirgan so'z bildiradigan narsa va hodisa hozirgi hayotda bor bo'lgani sababli, tilda uni ataydigan zamonaviy so'z ham bo'ladi. Ulus (xalq), lang (cho'loq), firqa (partiya), tilmoch (tarjimon), dorilfunun (universitet), o'miz (ko'krak) va boshqa. Qavs ichida berilgani ana shunday so'z hisoblanadi.

Ma'lum bo'ldiki, tilda so'z turmushning, jamiyatning talabi bilan bog'liq holda yashaydi. Shu talab turmush tushunchasini ifodalovchi yangi so'zning paydo bo'lishiga va yuqoridagi ba'zi so'zning eskirib iste'molda kam qo'llanishiga sabab bo'ladi. G'afur G'ulom poeziyasida ham eskirgan so'zga duch kelamiz. U bu leksikadan mohirona foydalangan so'z san'atkoridir. Shoir eskirgan so'zni arxiv emas, arsenal, deydi. «Badiiy adabiyotda arxaiklashgan leksikani qo'llash, kitobxonga o'tmish haqida to'liq tushuncha hosil qilish uni real tushunish uchun ko'maklashadi»

1. «... Davr koloritini yaratishda, qahramon tilini individuallashtirishda, tasvirlanayotgan voqeaning real va jonli bo'lishida uslubiy rol o'ynaydi»

2.«Eski so'z arsenalini qayta ko'rib chiqish va so'z ijod (kashf) qilish - shoirning jangovor vaafasidir»

3. Shunday ekan, bu arsenaldan kerakli so'zni topib, o'z o'rnida ishlatish har bir shoirning muqaddas burchi va sharafligi vazifasi hisoblanadi. Bu jihatdan G'afur G'ulom boshqa, shoirlarga o'rnak bo'la oladi. Uning she'rida ishlatilgan eskirgan so'z qanchalik, qadimiy bo'lmasin, o'z o'rnida qo'llanilgan va davr ruhini saqlashda muhim rolo'ynagan.

Eskirgan so'z ikki xil ko'rinishga ega:

1. **Arxaizm**

2. **Istorizm (tarixiy so'z)**

G'afur G'ulom she'rlarida eskirgan so'zning har ikkala turi ham uchraydi. Adib poeziyasida ishlatilgan arxaizm va istorizm, shubhasiz, shoirning dastlabki yildagi ijodiga xos. Undan keyin yozilgan asarlarida, xususan she'rlarida eskirgan so'zni kam ishlatishga harakat qilgan.

Eskirib iste'moldan chiqqan yoki kam ishlatiladigan, o'z ekvivalenti (sinonimiga) ega bo'lgan so'z arxaizmdir.

Arxaizm orqali ifodalangan predmet bugungi hayotda xam mavjud bo'ladi, biroq u avvalgi nom bilan atalmaydi, balki boshqa ekvivalenti bilan ifodalanadi.

G'afur G'ulom poeziyasida ishlatilgan arxaizmni quyidagi guruhlariga ajratdik.

1. Leksik arxaizm.

2. Grammatik arxaizm

Hozirgi o'zbek adabiy tilida sinonimi mavjud bo'lgan arxaizm leksik arxaizm hisoblanadi. Shoir she'rida uchraydigan leksik arxaizmga quyidagini misol qilib ko'rsatish mumkin: esh, oqcha, ulus, kusur, dudoq, udum, firqa, tilmoch, dorilfunun kabi.

Bu so'zning ba'zisi hozir ham tilimizda ishlatilsa-da, uning o'rnida ko'proq hamsuhbat, xalq, pul, kamchilik, lab, partiya, tarjimon, universitet kabi sinonimi qo'llanadi.

Arxaizm tilda saqlanib turadi, biroq u nafaol holatda bo'ladi, poetik asarda uslubga ko'tarinkilik berish hamda kesatiq ma'nosidagina qo'llanadi. Bunday holatni G'afur G'ulom poeziyasida, ko'plab uchratish mumkin. Shoirning «Kuzatish» she'ridan olingan quyidagi parchada eski so'z uslubiy maqsadda ishlatilgan.

Bobolar udumin tutib nazarda.

Kurashda toleing bo'lur senga yor.

Ba'zan eski so'z bilan chet so'zning farqiga borilmaydi. Ko'pincha hozirgi zamon o'zbek tilida ham, eski o'zbek tilida ishlatilmaydigan so'zga duch kelinadi. Bunday so'z kitobxon uchun notanish bo'ladi. Bu o'zbek tili lug'atidan emas, balki, boshqa til lug'atidan olib ishlatiladi. Shunday so'z shoir she'rida uchraydi.

Masalan: «Qor» she'rida shunday bayt bor.

To'y oqshomi inju taqqan etim qiz:

Majnuntolning marjonida bulduruq.

Bu parchada ishlatilgan «to'y oqshomi» so'zi G'. G'ulomning 1953 yilda nashr etilgan tanlangan asarida «Zufof oqshomi» deb berilgan. «Zufof» so'zi asli arabcha bo'lib, zifof (un)-nikoh to'yi ma'nosida ishlatilgan¹.

O'zbekiston paxtadir sening zahirang,

Tinchlik qo'rg'oniga qo'yajak g'ishting.

b) grammatik arxaizm.

Vaqtning o'tishi bilan so'z va iborada bo'lganidek, ba'zi grammatik shakl, affiks ham arxaiklashib iste'moldan chiqib ketadi yoki kam ishlatiladigan bo'lib qoladi, uning ayrimi esa boshqa grammatik shakl bilan almashadi. O'zbek tilshunosligiga oid ba'zi bir ishda ayrim kelishik qo'shimchasi, fe'lning zamon shakli, sifatdash va harakat nomi yasovchi ayrim affiksning hozirgi paytda arxaiklashgani haqida fikr yuritilgan.

Grammatik arxaizm G'. G'ulom she'rida quyidagicha ishlatilgan:

1. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida **-mish** affiksli sifatdash iste'moldan chiqqan bo'lsa-da, u G'. G'ulom she'rida uchraydi:

**Juda oddiy-har to‘p paxta, chinin aytsam,
Sevgi bilan ko‘karmishdir, zavq bilan dam,
Umidlar-la chechaklanmish va mehribon,
Diqqatlar-da yaprog‘iga yugurgan qon.**

**Kimdir bunda-
Gilamini qoqmishdir,
Tegirmonda gard to‘foni oqmishdir.**

2. G‘afur G‘ulom poeziyasi tilida fe’ning kelasi zamon sifatdoshi yasovchi ayrim affiksning ba’zi shakli hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi shakldan farq qiladi. Misol:

... Olamni qilajak misoli kunduz.

**... Gitler qudrat narvonin ko‘kka qo‘yolmas,
Quduq chuquriga tushmagay quyosh.**

Bundan tashkari shoir she’rida -g‘on (so‘rag‘on), -g‘in (olg‘in, borg‘in), -g‘ali (so‘rog‘ali), -g‘usi (bo‘lg‘usi, kelg‘usi), -g‘on (qolodurg‘on), -g‘uvon (aytg‘uvon), -gali (kelgali), -g‘ay (bormag‘ay) kabi grammatik arxaizmdan ham foydalanilgan:

-g‘on: .

**Bundagi mazmuncha asriy minutlar,
Bilag‘on kuchga har dam muntazir.**

-g‘usi, g‘uvsi:

**Axir bo‘lmasaydi intiqom,
Shaharlar tarixdan uchgusi edi,
Zolimlar oyog‘i ostidagi xalq.
Yukini orqalab ko‘chgusi edi.**

**Hamisha muborak bo‘lg‘uvsi bizga,
Dasturxon ustida ushatilgan non.**

-g‘ay:

**G‘alaba bayraming muborak bo‘lg‘ay,
To‘rt yil urush qilgan vatandosh o‘rtoq...**

g‘il:

**... Burgut oshiyonlar qura olguchi:
Yasha, omon bo‘lg‘il, dono avlodim.**

«Arxaiklashgan grammatik shaklni o'rganish, tarixiy grammatikaga doir muammoni yoritishda, badiiy asar tilidagi xarakterli xususiyatni to'g'ri tushunish va yozuvchining uslubini belgilashda muhim ahamiyatga ega». Bu so'z va shaklning ba'zisi 1930 yilda lug'at tarkibinint faol so'zi hisoblangan bo'lsa ham, hozirgi kunda eskirgan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bunday so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida «O'z davrini yashab bo'lgani» (E. Qilichev), endi unga ehtiyoj yo'qligi, kam ishlatiladigan bo'lib qolgani sababli, undan voqea va hodisaga tarixiylik bo'yog'ini berish, tarixiy mazmun kasb ettirish maqsadida qo'llanadi.

Istorizm o'tmishga oid, hozirgi kunda ishlatilmaydigan (yo'q) narsa va hodisani bildiruvchi so'z. Ma'lum davrda, ayrim predmet va hodisa jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichida yo'q bo'lishi, turmushda, kundalik hayotda o'z qimmatini yo'qotishi, iste'moldan chiqishi, o'tmish hodisasiga aylanishi mumkin. U nofaol lug'at tarkibida saqlanadi, ma'lum bir tushunchaning atamasi hisoblanadi. Bunday so'zdan yo'q bo'lib ketgan narsa, tushuncha haqida gan borganda foydalaniladi. Chunki hozirgi o'zbek adabiy tilida bu o'zining ekvivalenti (sinonimiga) ega emas. Ma'lum bo'ladiki, o'tmish voqeligini atash zaruriyati tufayli, ishlatiladigan eski lug'at birligi tarixiy so'z hisoblanadi. Har bir xalqning tili shu xalqning tarixini, ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi vositadir. Istorizm bildiradigan narsa-hodisa tarixiyligi sababli uning ko'pchiligi ma'nosi hozirgi davr uchun notanish bo'ladi.

G'afur G'ulom tasvirlanayotgan davr ruhini berish va kitobxon ko'z o'ngida o'tmish voqealarini yaqqol gavdalantirish maqsadida bunday so'zdan foydalandi. Masalan, omoch, qozi, amir, bek, qul, cho'ri, kanizak, taxt, botmon, o'lpon, podsho, kartochnka (non kartochkasi) kabi.

Jajji-jajji,

Qizlarimiz kanizak,

Go'daklarimiz bachcha.

Texnikaning oldida-

Omoch va bo'yin turuq,

Sust qadam, so'tak, quruq,

Puxta emas, bo'sh chiqdi-bo'sh chiqdi.

Bekzoda, podsholik,

Doshida qaynagan,

Yot ellar puliga yollangan,

Bir sotqin,

Kelgindi, bosh kesib.

Qahramon sanalgan...

Parchada ishlatilgan «bek» soʻzi qadimgi davrdan beri ishlatib kelinmoqda. Podsho, kanizak, bachcha soʻzi tarixiy soʻz boʻlib, davr ruhini sheʼrga singdirish uchun shoir bu soʻzni ishlatgan. «Arxaiklashgan leksika orqali asarda qatnashayotgan qahramonning qaysi sotsial tabaqa va kim ekanligini aniqlash mumkin boʻladi» Masalan:

Biz birovga baxt yaratib karaxt qolgan,

Biz oʻzgaga taxt yasatib badbaxt qolgan.

Misolda ishlatilgan k

quloq, taxt soʻzi - leksik istorizm. Bu soʻz shoir tomonidan uslubiy vazifani oʻtash maqsadida ishlatilmasdan, balki oʻtmish voqeasini esga olish yoki tasvirlashda shu lugʻaviy birlikdan foydalangan. Quloq - mehnatkash xalq hisobiga kun koʻruvchi, mehnatkashning kuchidan foydalanuvchi ekspluatatorning tipik vakili sifatida tasvirlangan boʻlsa, domla din niqobi ostida ish koʻruvchi boy va amaldorning malayi. Lekin domla soʻzi hozir yangi maʼno olgan boʻlib, oʻqituvchi, ustoz maʼnosida qoʻllanadi. Quloq soʻzi maʼnosida ham ancha ijobiy oʻzgarish bor.

Gʻafur Gʻulom sheʼrida ishlatilgan bunday leksik istorizmni koʻplab keltirish mumkin.

Masalan:

Oʻn yildan buyon topgan,

Obroʻylarkim-merganlik.

Boʻldi siyqa mirilik.

Qoʻshnilikda Akbar amin komissiya,

Zavot bilan yuz botmonlab shartlovchi...

Yem-xashak yoʻq, bir poy xoʻkiz ariq-turiq.

Qaydan boʻnak olish bilmay hamyon kuruyu

Xullas, arxaizm ham, istorizm ham oʻtmish voqeasini tasvirlashda tarixiy davr ruhini berish maqsadida qoʻllanadi.

Badiiy asardagi tarixiy soʻz tarixiy ruh - kolorit yaratish uchun muhim vosita boʻlib xizmat qilishi bilan barcha davr tilining yaqqol kartinasini aks ettiradi,

Aytilgan fikr eskirgan soʻz haqida baʼzi bir umumiy xulosa chiqarishga imkon beradi.

1. Eskirgan soʻz - til tarixi bilan zich bogʻlangan holda tilning ichki taraqqiyot qonuniga muvofiq, turli shaklda yuzaga chiquvchi tarixiy hodisa.

2. Eskirgan soʻzni tarixiy oʻrganish leksik qatlamda muhim ilmiy natijaga erishish uchun yordam beradi.

Oʻtmish voqeasini tasvirlashda tarixiy asar syujetidan foydalaniladi yoki oʻtmish voqeasi hozirgi asar syujeti ichida eslab oʻtiladi.

Har ikki holda ham istorizm voqelikni toʻgʻri aks ettirishga xizmat qildirilgan.

Gʻafur Gʻulomning yangi soʻzlardan foydalanish mahorati

Gʻafur Gʻulom yangilikka ixlosmand, hozirjavob shoir. Mamlakatimiz va xalqimiz hayotidagi har bir muhim voqea shoir ijodida oʻz ifodasini topgan. Toʻgʻrirogʻi «uning asari xalqimiz ishi va kurashining oʻziga xos xronologik dostonidir».

Gʻafur Gʻulom oʻzbek adabiy tilining boy lugʻat tarkibidan foydalanib qolmasdan, balki oʻzbek tilining soʻz yasash imkoniyati asosida koʻpgina yangi soʻz ham ijod qildi. Yangi yaratilgan bu soʻzni biz neologizm yaʼni yangi soʻzlar deb ataymiz. U oʻzbek tilini rang-barang maʼnoli va ifoda ottenkalari, koʻzga tashlanib turuvchi koʻplab yangi soʻzlar hisobiga boyitdi. Shoir yangi soʻzlar yaratar ekan, uning voqea va hodisani tasvirlashdagi maʼno chuqurligini (mazmunini), ifoda xususiyatini diqqat markazida tutadi. Adib ijod etgan yangi soʻz fikran teranligi, tasvirlanayotgan voqea-hodisaning oʻziga xos xususiyati bilan koʻzga yaqqol tashlanib turadi. Bu shoirning xohishi bilan emas, balki hayotning talabi, unga nisbatan ehtiyoj tugʻilishi va sanʼatkorning til boyligida obʼektiv ravida aks etishi bilan yasaladi. ... Dunyo tilida soʻz yasash usulining bir qancha xili boʻlishiga qaramay, bizning ongimizda odatda affiks orqali yangi soʻz hosil qilish tasavvurini uygʻotadi. Chunki hozirgi tilda eng koʻp qoʻllanadigan, juda singib qolgan usul - shu, Biroq bundan boshqa (affikssiz) soʻz yasash usuli ham bor.

Oʻzbek tilida soʻz yasash masalasiga doir maxsus yozilgan asar soʻz yasashning ikki usulini koʻrsatadi: affiks qoʻshish yoʻli bilan yasash -affiksatsiya va soʻz qoʻshish yoʻli bilan yasash,-kompozitsiya. Bu ikki usul -oʻzbek adabiy tilida soʻz yasashning asosiy yoʻli. Lekin bu boshqa usul bilan ham soʻz yasash mumkinligini rad etmaydi.

Gʻafur Gʻulom soʻz yasashda oʻzbek tilining ichki taraqqiyot qonuniga amal qildi. Oʻzbek tilining lugʻat fondi va tarkibidan keng foydalandi.

Shoir sheʼriyatidagi neologizm ikki xususiyatga ega:

1.Adabiy tilda paydo boʻlgan neologizmning Gʻafur Gʻulom poeziyasida aks etishi.

2.Shoir yaratgan neologizm.

Hayot dialektikasini yaxshi his etuvchi shoir har bir narsani doimiy harakatda ko‘radi. Uning o‘tkir ko‘zi hodisani taraqqiyot jarayonida, hayotni tabiat oqimida payqaydi. G‘afur G‘ulom ana shunday shoir. Shuning uchun ham adabiy tilda paydo bo‘lgan har bir yangi so‘z uning she‘riyatida o‘z ifodasini topgan. Neologizm tilga umuman mansub bo‘lishi, shuningdek, yakka-yakka shaxsning nutqiga xos bo‘lishi mumkin. Shu sababli, har qanday yangi so‘z ham boshda individual nutqqa xos bo‘ladi. Bunday neologizm ko‘pchilik tomonidan tanilsa, tilning taraqqiyot qonuniga mos holda tuzilgan bo‘lsa va tilda ma‘lum ma‘noni anglatish ehtiyojini qondirishga ko‘ra zarur deb qaralsa, bunday holda individual nutq neologizmi umumtil neologizmga aylanadi. Agar sanalgan talabga javab bermasa, bunday neologizm individual nutq doirasida qolib ketadi. Masalan, o‘zbek tilida qadimdan **tiz cho‘kmoq** iborasi ishlatiladi. G‘afur G‘ulomda bu iboraning «yangilangan» shaklini uchratamiz.

(masalan, **tiz bukmoq**). Bunday neologizm shakli individual nutq hodisasi deb qaraladi:

Garchand millionlardan so‘ng keksa Bernard Shou ham,

Bu cho‘ng aksiomoga ifor bo‘lib bukti tiz.

Yoki **turmushga tatbiq etmoq** G‘afur G‘ulom she‘rida shu ibora yangidan kalkalangan (hayotga ko‘chmoq).

Alisher boboning xolis niyati,

Bizning asrlarda hayotga ko‘chdi.

(«Alisher» she‘ridan).

Hayotga ko‘chmoq ham individual nutqiy neologizm hisoblanadi.

Har qanday yangi so‘z neologizm bo‘lavermaydi. Masalan, televizor, motoroller kabilar tilga kirib kelganda yangi so‘z deb qaralgan bo‘lsa ham, hozir o‘zining yangilik buyog‘ini yo‘qotib, odatdagi so‘zga aylangan. Demak, til taraqqiyotining har bir bosqichi o‘z neologizmiga ega bo‘ladi. Bir bosqichda neologizm deb qaralgan hodisa ikkinchisida ham neologizm bo‘lishi shart emas, Masalan, 30-yil nuqtai-nazaridan shpal («Turksib yo‘llarida»), seyalka («Selmashning bir degrez shoiri») kabi neologizm deb baholansa, hozirgi o‘zbek tilida bu odatdagi, zamonaviy so‘zga aylanib ketgan. 20 yil nuqtai-nazaridan neologizm deb qaralgan aeroplan («Bo‘lsin»), yo‘qsil (proletar ma‘nosida - «Yalovbardorlikka») kabilar hatto arxaizmga aylanib qolgan..

Fan-texnikaning rivojlanishi o‘zbek tilini yangi tushunchani ifodalovchi neologizm hisobiga boyitdi. Shoir she‘rida ishlatilgan yer yo‘ldoshi, kosmik kema, omon qo‘nish, oltin belbog‘, yumshoq qo‘nish, kosmonavt, raketa suvoriysi, lunoxod kabilar shu jumlasidan. Misol:

Yerni etmish aylanib qungach kosmik kemamiz...

**Yuriy Gagarin ham German Titovning,
Yerga oltin belbog' bo'lgan safari...**

**Raketalar suvoriysi-tinchlikning posbonlari,
Qarag'ayday sarbastayu, Tyan-Shanday tayanchim.**

2. G'afur G'ulom so'z bilan so'zni, so'z bilan qo'shimchani birlashtirish imkoniyatini topib, ko'rinish jihatidan yangi so'z yaratadi va unga yangi mazmun yuklaydi. Masapan, **kurashdosh** so'zini olib ko'raylik. Bu - adibning ijodxonasida shakllangan yangi so'z. Chunki «kurash» so'zi va qo'shimcha sifatida qo'llanuvchi -dosh mavjud bo'lsa-da, bir butun holda qo'llanmas edi. Shoir buni birlashtirib, yangi so'zni yuzaga keltirdi. Bunda shoirning xapq tilidagi har bir unsurdan foydalanish o'quvini, mahoratini ochiq-oydin ko'ramiz. Tildagi mavjud o'zak va qo'shimchani birlashtirish yo'li bilan G'. G'ulom juda ko'plab yangi so'z ijod qilgan. Shunga ko'ra, shoirning so'z yasash mahoratini ikki aspektida o'rganishni lozim deb topdik.

2.3.G'afur G'ulom yaratgan yangi so'zlar

Ma'lumki, har bir yozuvchi yoki shoirning qanday yangi so'z yaratganini aniqlash qiyin masala. Chunki, biror shoir yoki yozuvchi yaratgan deb o'ylangan so'z boshqa bir san'atkor tomonidan ilgari yaratib qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Shoirning «Bu kunning so'zi» she'rida **hamrang** neologizmi uchraydi. So'z yaratishdagi birinchilikni asar yaratilgan yilga qarab belgidik. Masalan, lug'at sektori kartotekasida **do'stparvar** so'zi ikki marta qayd qilingan. Birinchi kartochka G'afur G'ulomga tegishli bo'lib, u 1956 yilda chiqqan shoirning to'plamida borligi ko'rsatilgan. Ikkinchi kartochka esa, 1964 yilda chiqqan «Sovet O'zbekistoni» gazetasidan olingan. Shu asosda do'stparvar G'. G'ulom qalamiga mansub va u ijod qilgan yangi so'z degan xulosaga kelamiz.

barcha ijodkor qatori G'afur G'ulom ham yangi so'z yaratishda tom ma'noda ixtirochilikka yo'l qo'ymagan, albatta. Chunki u yaratgan har qanday so'zning u yoki bu unsuri to'la mavjud bo'ladi.

Bu o'rinda gap faqat san'atkorning til unsurini bir-biriga biriktira olish qobiliyati haqida borishi mumkin. Chunki ayrim shoir va yozuvchi bu borada, aniqrog'i yangi so'z yasashda

qosh qo'yaman deb ko'z chiqarib qo'yishi hech gap emas. G'afur G'ulom singari zabardast shoirning xizmati shundaki, u tilda mavjud bo'lgan unurni (asosan o'zak va qo'shimchani) bir-biriga biriktirib, til qonuniga mos keladigan yangi so'z yaratadi. To'g'ri, bu so'zning ko'pchiligi individual neologizm sifatida u yoki bu shoir asarida yashab kelaveradi. Ayrimi esa, boshqa yozuvchi va shoir tomonidan «ilib olinib» tez-tez qo'llana boshlaydiki, natijada u adabiy tilga ham kirib qolishi mumkin.

G'afur G'ulom - o'zbek tilida mavjud bo'lgan so'z o'zagiga yasovchi affiks qo'shib, o'z g'oyasini aniq hamda obrazli ifodalash uchun intilgan zahmatkash shoir. Quyida ana shunday so'zning ayrimi haqida fikr yuritamiz. O'zbek tilida suvsiramoq xohish, istak ma'nosini reallashtiradi. G'afur G'ulom tilda mavjud bo'lgan bu unurni nur so'ziga biriktirib **nursiramoq** shaklida original so'z ijod qilgan. Masalan:

Arpalarning namga to'ygan,

Ishtahasi hamisha,

Qiyog' cho'zar nursirab.

Yoki G'. G'ulom **sez** buyruq fe'liga **-im** qo'shimchasini qo'shib sezim neologizmini yasasa:

Ko'rib va bir tan birikib turaman,

Sezimning bu g'ovg'asini...

to'y so'ziga **-in** qo'shimchasini qo'shib, to'yin neologizmini ijod qiladi.

El to'yin, olam to'yin hamma boshda oftob,

Zehnlarda yoddoshdir, ustoz qoldirgan kitob...

Yozyovon qo'rig'ini yana keng yechmoq uchun,

To'yin hayotga atab donalar sochmoq uchun...

Umuman G'. G'ulom o'zakka yasovchi affiks va ikki o'zakni bir-biriga qo'shib so'z yasashda ancha mehnat qilgan. Quyida keltiriladigan misol shundan dalolat beradi.

Damkash:

Shaytondan qo'rqinchroq kapitalistlar,

Amerika, ingliz bosqinchilari,

Urush damkashlari, qattol iblislar.

Yalovkash:

Bir yalovkash,

Bir bayroqdor.

Bir ryadovoy singari...

Uvadaband:

Bu bir necha uvadaband otboqarlar,
Sho‘r peshona, gulohilar, o‘tyoqarlar...

Daryodil:

Mehnat kuzagining to‘yin fayzidan,
Qolmagay daryodil yerlar bebahra...

Qalqon bag‘ir:

Tinchlik po‘lat qo‘rg‘onin,

Qalqon bag‘ir erlari...

Kuzaytiradi:

Yo‘q janobi oliylar, endigi urush

O‘ylamang umringiz uzaytiradi,

Biroq hayotingiz olam bog‘ini,

Urushlar orqali kuzaytiradi.

Bundan tashqari, shoir yana **yaxbasta, safarbasta, sharafobod, sho‘xparvarda, urush talab, dullarzod, hijronzada** kabi yangi so‘zni yasagan.

G‘afur G‘ulomga xos neologizmdan yana biri shundaki, u ayrim affiksga yangicha ma’no ham yuklaydi. Xususan, -roq (rak) affiksi shoir asarida yangi ma’no kasb etadi. bu shoirning o‘ziga xos uslubini tashkil etadi. Misol:

Kapital -

Bir-birin yutmoqchi,

Muddao bozor,

Xuddi –

Och qolgan bua,

Fashistlanaroq burjua.

(«To‘qinish» she’ridan).

Men ulg‘aydim, kurashlarning nash'alarin **emarak,**

Kelgusida mendaylardan million-million kerak.

(«Yalovbardorlikka» she’rimiz)

Bundan tashqari, G‘afur G‘ulom so‘z ijod (kashf) qilishda -gulik, -kulik, -g‘ulik (bitkulik, olg‘ulik, yetgulik), -iq, -ik, -o‘q (o‘siq, tatiq, suzik), -lik (oftoblik, olamlilik) kabi qo‘shimchadan ham foydalanadi.

Shoir o‘z asarida qator affiksning qo‘llanish doirasini kengaytiradi, ya’ni u qo‘shimchanning ilgari qo‘shilmagan so‘zga biriktira oladi. Xususan, u

-cha affiksining qo‘llanish doirasini kengaytiradi.

**Ulug‘ rus xalqining ulug‘ og‘asi,
Jahon bor, jahoncha umring paydor.**

Lug‘at tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda so‘z ma‘nosi ham o‘zgarishi mumkin. Bu proses juda sekinlik bilan amalga oshadigan murakkab hodisa.

Bir vaqt eskirgan so‘z sifatida tilimizdan chiqib ketgan ba‘zi so‘z bugungi kunda o‘zbek tilida faol so‘z sifatida qo‘llanmoqda. Shubhasiz, bu so‘zning ma‘nosida katta o‘zgarish bo‘lgan. Lekin, shunday bo‘lsa-da, semantik istorizmni ko‘rsatuvchi so‘z hozirgi tilda faol qo‘llanayotgan ma‘nosidan tashqari, eskirgan ma‘nosi ham mavjud bo‘ladi.

G‘afur G‘ulomning bu sohadagi xizmati shundan iboratki, u ayrim so‘zga umumiste‘molda bo‘lmagan, biroq o‘zi tomonidan yaratilgan yangicha ma‘no yuklaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi bakovul so‘zining asl leksik ma‘nosidan tashqari, shoir uni yangicha ma‘no bilan bezaydi:

Hey, biz «ochlik» so‘zin ko‘mdik,

Lug‘at go‘riga,

Yo‘qsil bakovuli,

Xirmon to‘riga.

Bu o‘rinda xarakterlisi shundaki, G‘. G‘ulom ma‘nosiga o‘zgacha tus bergan so‘z yangidan yangi birikma hosil qilib keladi. Natijada shoir poeziyasi tilida o‘ziga xos original erkin birikma paydo bo‘ladi, bu esa adib tilining yanada go‘zal, rang-barang bo‘lishini ta‘minlagan. Quyida keltiriladigan ma‘rifat zinasasi, zamon kurasi, insof mahkamasi, ijtimoiy burrolik, koinot minbari kabi yangi birikma shoir ijodiy fikrlashining ko‘lami va qamrovi keng ekanligini ochiq-oydin isbotlab bera oladi. Masalan:

G‘olib asrimizga quyoshdan mash‘al,

Zamon kurasining so‘nmas cho‘g‘imiz.

Astoydil har erkak - yo‘ldosh demasa,

Insof mahkamasi sudga beradi.

Boku yoritar edi.

Uyimning chirog‘larin,

Elektrga ko‘chguncha,

Ma‘rifat zinasidan.

... Ijtimoiy burrolikning yo‘lini,

Beparvolik;

Sapsalarlik to‘smasin.

Yuqorida qayd etilgan yangi birikma ko‘p so‘z ishlatib tuuntirishni talab etadigan murakkab tushunchani qisqa shaklda sodda, ravshan va go‘zal qilib ifodalashga xizmat qilgan. Zotan «she‘riyat predmetsiz yalang‘ochliqdan iborat bo‘lgan mavhum g‘oyaga toqat qilolmaydi. Biroq mavhum tushunchaning o‘zini jonli go‘zal obrazga aylantiradi. Bu obrazda fikr qirrali, billurdagi nurdek, jilvanib turadi. Shoir poeziyasida neologizm muvaffaqiyatli ishlatilganligi uchun kitobxon birinchi marta eshitib turgan so‘zning ma‘nosiga ham to‘la-to‘kis tushuna oladi. Adib xayolidagi fikr to‘laligicha kitobxon xayoliga ko‘chib, uni hayajonga soladi. O‘quvchi, kitobxon o‘zi hozirgina o‘qib ketgan so‘zni yangi so‘z ekanligini ko‘pincha sezmay qoladi. Shuni aytish kerakki, adib yaratgan so‘zning xalq tiliga nima aloqasi bor, u adabiy tilga kiradimi yo‘qmi deb qaramaslik kerak.

Haqiqatan ham shoir neologizmi muayyan davrda faqat o‘sha muallif asarida mavjud bo‘ladi. Kelajakda u milliy adabiy tilga kirishi ham, kirmasligi ham mumkin. Ammo shoir yaratgan so‘z, bir tomondan, xalq tilining imkoniyati g‘oyat kengligini, cheksizligini, hamma gap ana shu imkoniyatni topib, o‘rinli foydalanishda ekanligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, muallif neologizmi asardagi voqeani payvandlash, g‘oyani yaxlitlashtirishda o‘ziga xos rol ni o‘ynaydi. Yangi so‘z yaratish uchun birinchidan, so‘z va qo‘shimchanning xususiyatini mukammal o‘rganib, uning iste‘moldan chetda qilayotgan qirrasini topish, ikkinchidan, bu yangi so‘zga imkon beruvchi holat badiiy mahsulni barkamollashtiruvchi vositaga xos xususiyatning tarkibiy qismiga aylanib ketishi kerak. «U yoki bu yozuvchi tilda so‘z yasashning normal holatiga zid ravishda originallik uchun» shunchaki so‘z «yasar» ekan, bunday yo‘l bilan yasalgan so‘z badiiy ifodaga va tilning ichki imkoniyatiga moe kelmaydi, tilni boyitish o‘rniga uni ifloslantiradi, buzadi.

Xullas, G‘. G‘ulom uslubining xarakterli tomonidan biri so‘zga ijodiy yondashib, unga faol munosabatida namoyon bo‘ladi. Shoir she‘riyati leksik tarkibi nihoyatda boy va rang-barang. Unda adabiy tilning leksik, morfologik xususiyati to‘la aks ettirilgan.

G‘afur G‘ulom poeziyasida xalqimizning hayoti o‘zining o‘tmishi, hozirgi va kelajagi bilan aks etganidek, o‘zbek adabiy tili ham o‘zining o‘tmishi, hozirgi va kelajak istiqboli bilan aks etadi. G‘afur G‘ulom doim original tashbeh topib, uni g‘oyaviylik va yuksak badiiylikni ta‘minlash uchun xizmat qildiradi. «Davr bilan yaqin aloqada bo‘ladi... Har bir narsani vaqtiga qarab, joyiga qarab, undan keyin shart-sharoitiga qarab, ishlatishga» harakat qiladi. Shoir ijodiga mansub bo‘lgan yangi so‘z fikrni siqiq va ixcham shaklda ifodalash uchun xizmat

qilgan. Ana shuning hammasi akademik shoir Gʻafur Gʻulomning izlanuvchan, yangilik ixlosmandi ekanligini koʻrsatadi.



XULOSA

Taʼlim jarayonida olib borilayotgan ishlarning bosh maqsadi yosh avlodni intellektual-aqliy salohiyatini yuksaltirishga qaratilganligidir. Bu borada koʻplab ishlarning amalgam

oshirilayotganligi fikrimiz isbotidir, ayniqsa ta'lim jarayonida barcha fanlar qatori til va adabiyot fanlarida nutq o'stirish, lug'at ustida ishlatish malakalarining skakllantirilishi hozirgi davr talabi. Shukardan kelib chiqqan holda badiiy matn yaratish, unda lksik-vositalarning tutgan o'rnini ilmiy nazariy o'rganishda G'afur G'ulom ijodi misolida tahlil qildik va quyidagi xulosalarga keldik

Birinchidan,shoir she'riyatidagi obrazli tili uning tasvir obyektiga bo'lgan munosabatini aniq qilib ifodalashga; xarakterli narsa va hodisa suratini chizishga; voqea, hodisa va tushunchaning ichki mohiyatini chuqur his qildirishga; keng fikrni nihoyatda qisqa va ixcham qilib ifodalashga; o'quvchida kuchli his-hayajon uyg'otishga xizmat qilganligini ko'rib chiqdik.. Ikkinchidan, adib o'zbek umumxalq tili manbaidan barakali foydalanish natijasida katta yutuqqa erishgani,so'zdagi ko'p ma'nolilik, uning nozik ottenkasi, qo'shimcha ma'nosini ta'minlash maqsadida polisemiya, ta'sirchanligini oshirish maqsadida omonim va uning turidan, jumlada bir xillikdan qochish, emotsionallikni ta'minlash va uslubiy ravonlikka erishish maqsadida sinonimdan unumli foydalanganligini, bunda u so'z o'rtasidagi nozik ma'no farqini chuqur anglagan holda ish tutganligini aniqladik. Uchinchidan,G'afur G'ulom she'rlarining ta'sirchan, to'laqonli bo'lishi uchun ona tilining turli nutq shakli, badiiy tasvir vositasi, eskirgan va yangi so'zlarni ishlatishni turli usullaridan foydalanganligini isbotlashga harakat qildik.

To'rtinchidan,san'atkor shoir tarixiy yoki zamonaviy hayotning tasvirida, tarixiy yoki zamonaviy peyzaj chizganda, tarixiy yoki hozirgi zamon kishisining nutqini berganda, uning o'ziga xos xarakterini ochganda, tasvirlanayotgan ijtimoi muhitning ruhini yaratganda eskirgan so'zdan ustalik bilan foydalanishi shoir mahoratining balog'atini ko'rsatishini bilib oldik.

Beshinchidan,tilimizda shunday so'zlar borki, kishining o'zaro munosabatida, nutqida juda ko'p qo'llanadi-yu, biroq she'riyatda kam ishlatiladi. Talantli shoir G'afur G'ulom aniqlik kiritish uchun ana shunday ommaviy so'zni poeziyaga olib kirdi va uni ustalik bilan ishlatdi.

Oltinchidan,adabiy tilimizni jonli xalq tiliga yaqinlashtirish va uni boyitish G'afur G'ulom ijodida o'zining to'g'ri va obyektiv, ifodasini topganligini misollar bilan ko'rsatishga harakar qildik.

Yettinchidan,G'afur G'ulom asarlari tili va shoirning uslubi poetik mahoratni o'rganish jihatidagina emas, balki uning o'zbek adabiy tili xazinasidagi ayrim so'z va iborani qayta ishlab berish, shoirning o'zbek tili grammatikasini silliqlashtirish ishiga qo'shgan hissasini aniqlash jihatidan ham alohida o'rganishga arzirli ish ekanligini isbotlashga harakat qildik.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR
RO‘YXATI**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.- T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq”, 1998.
- 4.Choriyev B. G'afur G'ulom she'riyati tili.- T.: Fan, 1990.
- 5.G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. –Toshkent. 2011.
- 6.Abdurahmonov G'. Mamajonov S. “O'zbek tili va adabiyoti”. Toshkent. 2002 y.
- 7.Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik qatlamlar. Toshkent. 1980 y.
8. Doniyorov X., Mirzayev S.So'z san'ati. Toshkent. 1980 y.
9. Karimov N.XXasr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari va milliy istiqloq mafkurasi. Toshkent 1993 y.
10. Mengliev B.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent 2009 y.
11. Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh.Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent 1992 y.
- 12.O'zbek tilining izohli lug'ati, 1-2 jildlar. M, 1981y.
13. Shoabdurahmonov Sh.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent 1980 y.
14. Mirzayev S.XX asr o'zbek adabiyoti. Toshkent 2005 y.
15. Sharofiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004.
16. Umirov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: Sharq, 2002.
17. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. – T.: Yozuvchi, 2000.

18. Elektron ta'lim resurslari.

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)
6. [www. nutq. intal. Uz.](http://www.nutq.intal.Uz)